

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAC NYUTON
(1643-1727)



2022

APREL

№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
1-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-1**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-1**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 51 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Mallaev Normamat Ramazanovich, Ergashev Bahodir Abdurasulovich ADVOKATNING YURIDIK MAQOMI BILAN BOG'LIQ MASALALARNING NAZARIY JIHATLARI.....	7
2. Дадебаева Шахназа Байрамкличевна ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИДА СПОРТ ШАРТНОМАЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ MASALALAR	10
3. Bekchanov San'at Komilovich QONUN IJODKORLIGI SOHASIDAGI HUQUQIY SIYOSAT	13
4. Нурумбетова Садоқат Аллаяровна ДИНИЙ MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA HILOF RAVIISHDA TAJIRLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH EKI TARQATISH JIHOYATINING UZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	15
5. Annakulov Olovuddin Shavkat o'gli AGENTLIK SHARTNOMASINING FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI	18
6. Haydarov Davron Mustafo o'g'li SPORT (FUTBOL) HUQUQIDA SHARTNOMA MUNOSABATLARIDAN KELIB CHIQUADIGAN MAJBURIYATLAR.....	22
7. Ибрагимов Ойбек АСЕАН И ЕГО ПРАВОВОЙ СТАТУС	25
8. Маматкулов Камолиддин Галабаевич ЎЗБЕКИСТОНДА ЯККА МЕХНАТ НИЗОЛАРИНИ СУД ТАРТИБИДА КЎРИБ ЧИҚИШ ТАРТИБИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ.....	29
9. Qayumova Dildora Shokirovna O'SMIRLAR O'RTASIDAGI HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISH.....	31
10. Adambayev Umidbek Xaitbayevich, Turdaliyeva Hulkaroy Shuhrat qizi HOZIRGI KUNDA AXLOQLI YOSHLARNING TARBIYALASH USULLARI	33
11. Abdug'afforova Mohinur Abdusamat qizi HOZIRGI DUNYODA HUQUQIY TA'LIMNING AHAMIYATI	35
12. Абдишерипов Асадбек Алижан ўғли ДАВЛАТ БОШКАРУВИДА ХУКУКБУЗАРЛИКАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ АХАМИЯТИ	37
13. Абдишерипов Асадбек Алижан ўғли ЖАМИЯТДА ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ОРҚАЛИ ХАЛҚ ОРАСИДА ХУҚУҚИЙ ОНГ ВА МАЪДАНИЯТНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ	40
14. Абдишерипов Асадбек Алижан ўғли ЖАМИЯТ БОШКАРУВИДАГИ ИШТИРОК ЭТУВЧИ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИ	42
15. Эгамов Расулбек Рахмат ўғли ЖИСМОНИЙ ВА ЮРИДИК ШАХСЛАРНИНГ МУРОЖААТЛАР ТУШУНЧАСИ, ТУРЛАРИ ВА ШАКИЛЛАРИ	45
16. Эгамов Расулбек Рахмат ўғли ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ЖИНОЯТГА ОИД МУРОЖААТЛАРНИ КЎРИБ ЧИҚИШ ФАОЛИЯТИ	47
17. Эгамов Расулбек Рахмат ўғли ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШ ФАОЛИЯТИДА ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ РОЛИ.....	49



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

ADVOKATNING YURIDIK MAQOMI BILAN BOG‘LIQ MASALALARNING NAZARIY JIHATLARI

Mallaev Normamat Ramazanovich,

Termiz davlat universiteti dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi

Ergashev Bahodir Abdurasulovich,

Termiz davlat universiteti
5A240101 – Advokatlik faoliyati
mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA: Maqolada Advokatning yuridik maqomi bilan bog‘liq masalalarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etilgan. Advokatura faoliyatining qonunchilik acolarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Advokatura faoliyati ham nazariy, ham milliy qonunchilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Advokat, advokatura, advokatlik tuzilmalari, huquqiy maqom, advokatlar hay‘ati, advokatlar firmasi, qonunchilik.

Advokat (lot. “avocatus” sudda ish yurituvchi, himoyani amalga oshiruvchi ma’nosini anglatadi; inglizcha “barrister, advocate”) — o‘z qonuniy xarakterdagi tavsiyalari, maslahatlari orqali tergov yoki sudning barcha bosqichlarida o‘z himoyasi ostidagi shaxsga professional huquqiy yordam beruvchi shaxs[1].

Qonun ustuvorligi hamda fuqarolar va birlashmalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilinishini tan oladigan har qanday davlatda advokatura muhim huquqiy institut hisoblanadi. Har bir fuqaroning o‘z farovonligiga ishonchi jamiyatda advokaturaning uyushqoqligi, mustaqilligi va huquqiy himoyalanganligi darajasiga mutanosibdir. Chunki advokaturaning asosiy vazifasi fuqaro va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda butun jamiyatga va uning a‘zolariga ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yuridik xizmatlar ko‘rsatishdan iboratdir[2].

Huquqshunos olimlardan M.X.Rustamboev va U.A.Tuxtashevalarning ta’kidlashlaricha, advokatura davlat yoki fuqarolik jamiyati institutlariga tegishlilikini hal etish masalasi falsafiy xulosa chiqarish masalasidir. Advokatura bu jamiyatda barcha shaxslarning, ya’ni fuqarolik jamiyatining, huquq va manfaatlarini himoya qilish ehtiyoji natijasida paydo bo‘lgan jamiyat faoliyati samarasidir. Advokaturaning tashkiliy-huquqiy asoslarini esa qonun chiqaruvchi hokimiyat orqali davlat belgilaydi., ya’ni advokatura bu qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatish maqsadida faoliyat olib boradigan huquqiy institutidir [3].

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini muxofaza qilish O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Advokatura instituti esa, ushbu siyosatni amalga oshirishning juda muhim bir qismi hisoblanadi.

Advokatlik faoliyati - qonunda belgilangan tartibda advokat maqomini olgan shaxslar tomonidan ishonch bildiruvchilar - jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini ta’minlash maqsadida professional asosda ko‘rsatiladigan malakali yuridik yordam. Advokatlik ko‘p asrlar muqaddam yuzaga kelgan qadimiy kasblardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunining 1-moddasida belgilanganidek, Advokatura — huquqiy institut bo‘lib, u advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. Advokatura O‘zbekiston



Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi [4].

Bizningcha, advokatura deganda fuqarolik jamiyatining muhim huquqiy institutlaridan biri bo‘lgan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik yordam ko‘rsatish maqsadida faoliyat ko‘rsatadigan nodavlat va notijorat kasbiy tashkilotni tushunish lozim.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ko‘pgina yevropa davlatlarida advokatura instituti ikkita institut: advokatura va sud va vakillik qilish sifatida shakllangan va rivojlangan. Mamlakatimiz qonunchiligida esa advokatura zimmasiga barcha jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muxofaza qilish, odil sudlovni amalga oshirishda ishtirok etish, qonuniylikka rioya qilish vazifasi yuklatilgan [5].

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik davlat fuqarolik jamiyati qurish yo‘lini tanlar ekan, davlatimizda bu maqsadga erishish uchun ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda, inson xuquqlarini himoya qilish, jamiyat a’zolarini huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini yuksaltirishga alohida etibor berilganmoqda. Ushbu maqsadga erishish borasida advokatura tizimi tubdan isloh qilinib, uning mustaqilligi ta’minlanmoqda.

17-moddadan iborat bo‘lgan «Advokatura to‘g‘risida»gi qonunda advokaturaning maqomi vazifalari, faoliyat prinsiplari, tashkiliy shakllari, advokat maqomiga ega bo‘lish shartlari, advokatning huquq va vazifalari hamda advokatlik faoliyatining turlari belgilab berilgan. Shuningdek, unda advokat yordamchisining huquqiy maqomi, advokatlik siri, advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatning ijtimoiy himoyasi singari holatlar o‘z ifodasini topgan.

Shuni aytish lozimki, 1996 yilda qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida”gi va 1998 yilda qabul qilingan “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunlar advokatlik faoliyatining keng quloch yoyishiga imkon berdi.

Chunonchi mazkur qonunlar kuchga kirguncha qadar respublikamizda 1700 ga yaqin advokat faoliyat ko‘rsatgan [6]. 2021 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra Respublikamizda amalda advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan shaxslar 4125 nafarni tashkil qilmoqda [7].

Advokatlar va advokatlik tuzilmalari advokatlik faoliyatining sub’ektlari hisoblanadi.

Advokat(advokatlik tuzilmalari) bo‘lmagan shaxslar, shuningdek, patentli ishonchli vakillar, soliq maslahatchilari tomonidan vakolat beruvchi shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatish advokatlik faoliyati hisoblanmaydi, advokatning (advokatlik tuzilmalarining) soliq maslahatchi sifatida ishtirok etish hollari bundan mustasno.

Advokatlik faoliyati tadbirkorlik hisoblanmaydi. Advokatlik tuzilmalari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hisoblanmaydi [8].

Fikrimizcha, “advokatlik faoliyati” deganda O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatishini tushunish lozim.

Advokatura notijorat tashkilotdir va faoliyatni o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiradi.

Ilmiy adabiyotlarda advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishga huquq beruvchi litsenziyani advokatura tomonidan berilishi lozimligi haqidagi nuqtai nazar mavjud. A.V.Kurdovanning fikricha, yakka tartibdagi advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishga litsenziya berish uchun imtihon olish huquqi advokatlar hay’atlariga berilishi kerak [9]. M.Yu.Barhyevskiyning fikricha, “Advokatura mustaqil jamoat tashkiloti ekanligini e’tiborga olib, advokaturaga malaka imtihonlarini qabul qilish, litsenziya berish, uning amal qilishini to‘xtatib qo‘yish va bekor qilish vakolatini berish kerak. Ushbu jarayon ustidan nazoratni esa, albatta sud, amalga oshirishi lozim” [10]. Shuningdek, uning fikricha, “advokat deputatlik faoliyatini amalga oshirayotgan yoki harbiy xizmatda burchini o‘tayotgan paytda kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli emas” [11].

B.Salomovning ta’kidlashicha, “advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishga ruxsat beruvchi litsenziya ijro etuvchi hokimiyat, xususan adliya organi tomonidan malaka komissiyasining qarori asosida berilishi lozim. Litsenziya muayyan faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsat etuvchi hujjat ekanligini e’tiborga olib, davlat organi tomonidan berilmog‘i, uning amal qilishini to‘xtatib qo‘yish va bekor qilish funksiyasi esa jamoat tashkilotiga berilishi mumkin” [12].

Bizningcha, ushbu fikrga qo‘shilish lozim. Chunki advokatura nodavlat tashkilot hisoblangani bilan unig faoliyati uchun huquqiy asos davlat organi tomonidan berilishi kerak.



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Воробьев А.В., Поляков А.В., Тихонравов Ю.В. Теория адвокатуры. - М.: Грантъ, 2002.
2. Адвокатская деятельность: Учебно-практическое пособие \ Под общ. Ред. К.ю.н. В.Н.Буробина. 3-е изд. Перераб. И доп. –М.: Статут, 2005. –Б.15.
3. Rustambayev M.X., Tuxtasheva U.A. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati va sud-huquq islohoti. –Т.: TDYuI, 2009, -В.440-441.
4. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son
5. Саломов Б. Процессуальные права и обязанности адвокатов в странах СНГ // Адвокат. 2001. №2(7). –С.48.
6. Саломов Б.Адвокат обрўси//Халқ сўзи.-2008 йил 6 июн.
7. <https://paruz.uz/uploads/2021/02/2021-uz.pdf>.
8. Адвокатура Узбекистана: Содействие в реформировании: (Предложения по законодательству и адвокатской пратике) \ \ Ред. Совет: М.Х.Рустамбоев (пред), Л.Б.Хван, С.А.Якубов и др. –Т.: Мир экономики и права, 2002. –Б. 16.
9. Курдова А.В. Защитник обвиняемого и уголовном процессе США: дис...канд.юрид. наук.-М., 1999.-С.72.
10. Барщевский М.Ю. Организация и деятельность адвокатуры в России: Науч.-практ. пособие.-М.: Профобразование, 2000.-С.134.
11. Барщевский М.Ю. Организация и деятельность адвокатуры в России: Науч.-практ. пособие.-М.: Профобразование, 2000.-С.136-137.
12. Salomov.B. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar): Avtoref.dis. ... yuridik fanlar doktori. Toshkent:, 2005. B. 26.



ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИДА СПОРТ ШАРТНОМАЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МАСАЛАЛАР

Дадебаева Шахназа Байрамкличевна

Тошкент давлат юридик университети,
Магистратура ва сиртки таълим факултети талабаси
Gmail: shaxnazadadebayeva@gmail.com

АННОТАЦИЯ. Ушбу тезисда фуқаролик ҳуқуқида спорт шартномаларини тартибга солиш масалалари, фуқаролик ҳуқуқида шартномаларини тартибга солишда шартномавий мажбуриятлар, фуқаролик ҳуқуқида спорт шартномалари муносабатларини тартибга солиш йўналишлари илмий таҳлил қилинган. Спорт шартномалари тузиш сифатини яхшилаш ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга тўлиқ риоя этилишини таъминлашга қаратилган амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар. Спорт, шартнома, спорт шартномалари, Спорт ташкилотлари, меҳнат шартномалари, ўйинчи билан тузиладиган шартномалар, мураббий билан тузиладиган шартномалар, ҳомийлик шартномалари, спорт ташкилоти ўртасидаги шартномавий муносабатларни тартибга солиш, спорт ҳуқуқи субъектлари, жисмоний тарбия-спорт ташкилотлари ва бошқа ташкилотлар билан меҳнат шартномаларини тузиш,

Спорт соҳасидаги муносабатларни асосан шартномалар билан тартибга солиш.

Спорт шартномаси ҳақида тўхталадиган бўлсак, бошқа шартномаларга ўхшаш икки ёки ундан ортиқ тарафлар ўртасида тузилган қонуний кучга эга бўлган шартнома ҳисобланади. Спорт шартномасида белгиланган шартларни бирон бир қонуний сабабсиз бажармаслик ҳолати бу шартномани бузиш демакдир. Бундай қоидабузарлик ҳолати деб спорт шартномасида белгиланган талаб қилинган натижаларга эришмаслик, рақобатлашмаслик, бошқа спорт шартномаларига аралашуш ҳолати, спортчиларни ва мураббий ларни жалб қилиниш ҳолатларини бузилиши, спорт шартномаси билан боғлиқ бўлган бошқа шартларни ўз ичига олади. Ваҳоланки клубга таклиф қилинган истиқболли спортчидан талаб қилинадиган нарса бу унинг ўз устида кўпроқ ишлаши ва яхши натижаларни кўрсатишидир. Спорт меҳнат шартномасига кўра спорт ходими иш берувчи хоҳлаган вақтда ва жой да ноқонуний бўлмаган ҳолда иш спорт хизматларини кўрсатиши керак[1]. Клуб билан шартнома имзолаган футболчи машғулотларда қатнашиши, иш берувчининг талабларига биноан ўйинларни ўтказиши ва рекламаларда қатнашиши керак.

XX асрнинг 80-йилларигача спорт соҳасидаги турли қонун ҳужжатлари ҳар доим ҳам давлатлар томонидан қабул қилинмаган, аксинча спорт ташкилотлари томонидан мустақил ишлаб чиқилиб, амалга оширилган. Ҳақиқатан ҳам, ўша пайтларда спорт муносабатлари спорт ташкилотларнинг ички уставлари, хартиялари, регламентлари ва қоидалари билан тартибга солинган[2].

Спорт ташкилотлари томонидан тузиладиган энг кенг тарқалган шартномалар куйидагилар ҳисобланиб, мазкур шартномаларнинг тури бўйича спорт ташкилотларининг шартномавий мажбуриятлари ўзгариб туради:

- меҳнат шартномалари (employment contracts);
- ўйинчи билан тузиладиган шартномалари (player contracts);
- мураббий билан тузиладиган шартномалар (coach contracts) объектларни ижарага бериш шартномалари (contracts to lease facilities);
- ҳомийлик шартномалари (sponsorship contracts);
- кредит шартномалари (loan contracts) ва бошқалар[3].

Жумладан, спорт ҳуқуқи субъектлари ҳилма-ҳил бўлиб, биринчи навбатда уларнинг ҳар бирини спортга бўлган муносабатининг даражаси аниқланиши лозим, шундагина асосий субъектларни аниқлаган ҳолда уларга ҳуқуқ ва мажбуриятларни бериш мумкин бўлади. Қолаверса, спорт бу инсоннинг жисмоний ривожланишини яхшилаш, саломатликни мустаҳкамлаш, ижодий узок умр кўриш, жисмоний тарбия олишдаги воситадир деган ҳулосага келишимиз мумкин. Умуман олганда спорт ташкилотларининг шартномавий мажбуриятлари миллий қонунчилигимизда ёритилмаган бўлсада, янги таҳрирда қабул қилинган «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг



25-моддасига мувофиқ, Спортчи:

спорт тури ёки спорт турларини танлаш;

танланган спорт тури ёки спорт турлари бўйича спорт мусобақаларида ушбу спорт турлари қоидалари ҳамда спорт мусобақалари ҳақидаги низомларда (регламентларда) белгиланган тартибда иштирок этиш;

Спорт турлари бўйича ягона спорт таснифи нормалари ва талабларини бажарганда спорт унвонлари ва спорт разрядларини олиш;

қонунчиликда белгиланган тартибда жисмоний тарбия-спорт ташкилотлари ва бошқа ташкилотлар билан меҳнат шартномаларини тузиш;

танланган спорт тури ёки спорт турлари бўйича спорт федерациялари (уюшмалари) томонидан ўз ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларининг ҳимоя қилиниши;

жисмоний тарбия-спорт ташкилотларининг қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан бўйсунув тартибида юқори турувчи органлар ёки мансабдор шахсларга ёхуд судга белгиланган тартибда шикоят қилиш ҳуқуқига эга.

Спортчиларнинг айрим тоифалари қонунчиликда белгиланган тартибда имтиёзли пенсия олиш ҳуқуқига эга[4].

Юқоридаги мисолларда спортчи ва спорт ташкилоти ўртасидаги муносабатлар фуқаролик қонунлари билан тартибга солиниши кераклиги ҳақида тахмин қилинади. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодексида спортчиларнинг бир ташкилотдан иккинчига ўтиши билан боғлиқ муносабатларни тартибга солувчи битимлар назарда тутилмаган. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 354-моддаси шартнома тузиш эркинлиги принципини белгилаб қўйган ҳолда, тарафлар қонун ҳужжатларида назарда тутилмаган шартномани ҳам тузиш ҳуқуқига эгадирлар. Бинобарин, спортчининг трансфери тўғрисида шартномалар Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексида назарда тутилмаганига қарамай, шартнома эркинлиги принципига асосланиб тузилиши мумкин. Фуқаролик кодексининг 364-моддасига кўра, агар тарафлар ўртасида шартноманинг барча муҳим шартлари юзасидан шундай ҳолларда талаб қилинадиган шаклда келишувга эришилган бўлса, шартнома тузилган ҳисобланади. Ушбу модданинг иккинчи қисми эса, шартноманинг предмети тўғрисидаги шартлар, қонун ҳужжатларида бундай турдаги шартномалар учун муҳим ёки зарур деб ҳисобланган шартлар, шунингдек тарафлардан бирининг аризасига кўра келишиб олинishi зарур бўлган ҳамма шартлар муҳим шартлар ҳисобланади[5].

Спорт шартномалари жамоавий шартномалар ва индивидуал шартномаларга ҳам бўлинади. Агар профессионал спортчи жамоанинг бир қисми бўлса, у одатда, стандарт ўйинчи шартномасини тузади. Унинг шартномаси ва жамоанинг бошқа аъзолари билан тузилган шартноларнинг ўртасидаги ягона фарқ одатда тўланадиган ҳақ, мукофотлар ва музокараларни қайта олиб бориш танлови борасида бўлади. Профессионал хизмат шартномалари (стандарт ўйинчи шартномалари). айнан бир ўйинчи билан ҳеч қандай ўзгаришларсиз қайта-қайта тузилиши мумкин. Спортчи лигага ўйинчи сифатида жалб этилган этилмаганидан қатъий назар, шартнома спортчига таклиф этилади.

Спорт шартномаси спортчилар ва спорт ташкилотлари ўртасида ҳуқуқий муносабатларни тартибга солади. Баъзи олимларнинг фикрига кўра, спорт шартномаси меҳнат шартномаси сифатида қаралиши, меҳнат қонунчилиги асосида тартибга солиниши лозимлиги ҳақида айтишсада, баъзилари унинг фуқаролик ҳуқуқий тарафларини келтириб фуқаролик спорт шартномаси сифатида кўрилиши кераклигини, айримлар эса унда ҳам фуқаролик ҳам меҳнат муносабатлари мавжуд деб ҳисоблаб, аралаш турдаги шартнома сифатида қаралишини таклиф қилади.

Хулоса қиладиган бўлсак, спорт шартномасининг ўзига хос ҳуқуқий муносабатларини, хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда халқаро нормалардан келиб чиқиб, спорт шартномасига тааллуқли, спорт ҳуқуқига доир алоҳида қонун ҳужжатлари ишлаб чиқиш ҳозирги кун талабидир. Спорт фаолиятини тартибга солиниши унинг спорт автономиясини ҳисобга олиб, халқаро қонунчилик тажрибасига таянган ҳолда ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, спорт ҳуқуқини ривожлантириш керак.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Van Rompuy B. ASSER International Sports Law Series. – Springer, 2020. – P. 210-230. – URL: <https://www.springer.com/series/8858>
2. Regulation and Liabilities of Parties in Sports Contract. Avinandan Chattopadhyay. https://papers.ssrn.com/sol3/Delivery/cfm/SSRN_ID2145520
3. Dogovornie formi pravovix otnosheniy v sfere professionalnogo sporta. L.A.Rodionov, kand. yur. nauk, dotsent Samarskiy yuridicheskiy institut FSIN Rossii Rossiya, g. Samara
4. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги қонуни. Тошкент ш., 2015-йил 4-сентябр.
5. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. II-қисм. (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 11-12-сон, 1-модда; 1997 й., 9-сон, 241-модда; 1998 й., 5-6-сон, 102-модда;



QONUN IJODKORLIGI SOHASIDAGI HUQUQIY SIYOSAT

Bekchanov San’at Komilovich

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti
Davlat boshqaruv huquqi yo‘nalishini 2-kurs magistranti
Telefon: +998(99) 960 74 76

Annotatsiya: Ushbu berilgan ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ushbu sohasidagi ilmiy qarashlari, qonun ijodkorligi, huquqiy siyosat, zamonaviy ilmiy adabiyotlardagi huquqiy siyosat, ijtimoiy munosabatlar va boshqalar haqida ilmiy asosda ma’lumotlar berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Qonun ijodkorligi, huquqiy siyosat, davlat, ilmiy, huquqiy, yuridik, ijtimoiy munosabatlar, tartib.

Jamiyat huquqiy rivojlanishining davr talablariga mos va tegishli yuksak saviyada bo‘lishi ko‘p jihatdan davlat hokimiyati yuritadigan huquqiy siyosatga bog‘liq. Davlat hokimiyatining irodasi – siyosiy iroda. Ushbu iroda qonun ijodkorligi faoliyatiga impuls beradi, natijada o‘zi shaklan – qonun, mazmunan – huquq tarzida rasmiylashadi, yuridik ma’no kasb etib, siyosiy-huquqiy hodisaga aylanadi. Ma’lumki, davlat belgilaydigan maqsad, bajaradigan vazifalar, amalga oshiradigan faoliyat siyosat sohasini tashkil etadi, boshqacha aytganda, ayni siyosatdir. Davlat faoliyati nihoyatda serqirra bo‘lganligi bois, u yuritadigan siyosat bir qancha turlarda, masalan, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, madaniy-ma’rifiy siyosat, huquqiy siyosat kabi shakllarda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida adolatli demokratik davlatchilik qaror topayotgan vaziyatda huquqiy siyosat mavzusini, bunday siyosatni shakllantirish va amalga oshirishning fundamental masalalarini ilmiy tadqiq etish o‘ta dolzarb vazifadir. Chunki, mamlakatda yuritilayotgan huquqiy siyosatning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetish huquqiy tizimni muvaffaqiyatli modernizatsiya qilish garovidir¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining 2017-yil 12-iyuldagi parlament palatalari qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida shunday dedi: “Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, amaldagi qonunlarimizda bir-biriga zid o‘rinlar ham yo‘q emas”. Davlat boshlig‘i yana bir chiqishida ta’kidladiki, “Afsuski, hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta’siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda”. Ushbu fikrlar hozirgi kunda qonun ijodkorligini rivojlantirish borasidagi huquqiy siyosatning o‘zagini, uning istiqbolli dasturini tashkil etadi, deyish mumkin.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda huquqiy siyosat mavzusiga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur maqolada huquqiy siyosatning birgina jabhasi, ya’ni, uning qonun ijodkorligi vositasida shakllantirilishi, amalga oshirilishi, qolaversa, qonun ijodkorligining ko‘lami, yo‘nalishi, mazmun-mohiyatini belgilovchi muhim omil ekanligiga e’tibor qaratiladi.

Huquqiy siyosat – davlatning huquqiy mafkurasi, uning huquqiy hayot sohasida tutadigan yo‘l-yo‘rig‘i, ro‘yobga chiqaradigan amal va tadbirlari, qo‘llaniladigan rahbariy g‘oyalari (printsipalari) ifodasidir. Shu bilan birga aytish joizki, huquqiy siyosat yuridik faoliyatdagi qadriyatlar, ustuvorliklar tizimida, huquqiy hayot voqeliklarida, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida hamda rasmiy huquqiy mafkurada namoyon bo‘ladi. O‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, huquqiy siyosat jamiyat tuzilmalari va davlat organlarini quyidagi dolzarb vazifalarni hal etishga yo‘naltiradi: mamlakat miqyosidagi muhim ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, huquq subyektlarining huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini muhofaza etish, yuridik hayotni ravon hamda izchil rivojlantirish, qonunchilikni davr talablariga mutanosib takomillashtirib borish, ijtimoiy-huquqiy ong va madaniyatni barqaror yuksaltirish, umuman, huquqiy tizimni yalpi modernizatsiya qilish kabilar.

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy siyosatning irodaviy hodisa ekanligiga e’tibor qaratiladi: “huquqiy siyosat davlatning huquqiy hayot sohasidagi tizimli rasmiylashtirilgan irodasi bo‘lib, u davlatning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish maqsadida yuridik vositalardan oqilona foydalanish

1 Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2018. –B. 240.



borasidagi muntazam faoliyatidir”.

Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonlari davom etayotgan hozirgi sharoitda davlatning qonun ijodkorlik faoliyatiga, umuman, qonunchilik siyosatining mazmuniga yanada yuqori yangi talablar qo'yilishi tabiiy. Mazkur vaziyatda qonun ijodkorligi sohasidagi davlat siyosatini davr ruhi va ehtiyojlariga mos holda takomillashtirishni ta'minlovchi, mustahkam metodologiyaga tayangan ilmiy konsepsiyani shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu o'rinda, qonunchilik siyosati qonunlar yaratish sohasidagi davlat faoliyatining ilmiy asoslangan strategiyasi va taktikasi sifatida maydonga chiqadi. Qonun ijodkorligi borasidagi huquqiy siyosatni rivojlantirish konsepsiyasida, avvalo, qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatining va qonunchilik siyosatining bosh maqsadi, asosiy vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, rivojlanish tendensiyalari, qo'llaniladigan rahbariy prinsiplari, strukturasi va shakllari, ijtimoiy munosabatlarni qonun vositasida tartibga solishning yuridik vositalari va usullari o'z aksini topishi zarur. Qonun ijodkorligiga oid siyosatning istiqbolga mo'ljallangan konsepsiyasini ishlab chiqishda qonun va qonunchilik hujjatlari tizimi rivojlanishini prognoz qilish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Xulosa shuki, qonunchilik siyosati davlat huquqiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatning izchil huquqiy taraqqiyotini ta'minlash, huquqiy tizimni yaxlit voqelik tarzida sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, qonun ijodkorligi faoliyatini modernizatsiya qilish, uning ilmiy asoslarini mustahkamlash, eng muhimi, ijtimoiy munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solishning qonuniy mexanizmlarini yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. – 50 b
2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2018. – 528 b.



ДИНИЙ МАЗМУНДАГИ МАТЕРИАЛЛАРНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАЙЁРЛАШ, САҚЛАШ, ОЛИБ КИРИШ ЁКИ ТАРҚАТИШ ЖИНОЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Нурумбетова Садоқат Аллаяровна
Ички ишлар вазирлиги Академияси
Дастлабки тергов ва криминалистика
кафедраси доценти в.б., подполковник
Телефон: +998994343107

АННОТАЦИЯ: Мақолада диний экстремизм, сепаратизм ва ақидапарастлик ғоялари билан йўғрилган, қирғин солишга ёки фуқароларни зўрлик билан қўчириб юборишга даъват этадиган ёхуд аҳоли орасида ваҳима чиқаришга қаратилган маълумотлар ва материалларни ҳар қандай шаклда тарқатиш тушунчаларига ва уларнинг жиноят ёнунчилигида тутган ўрни ва аҳамияти юзасидан муаллиф фикрлари баён этилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: *ижтимоий тармоқ, жиноий таъқиб, муҳофаза, хавфсизлик, диний экстремизм, сепаратизм, ақидапарастлик, даҳлсизлик, варақа, қўлланма.*

Демократик адолатли жамият қуришдек улуғвор мақсадга эришиш йўлида янада собитқадам бўлишимиз лозим. Бу борада амалга оширилаётган суд-ҳуқуқ ислохотларининг энг муҳим вазифаси инсоннинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларининг самарали муҳофазасини, аввало, асоссиз жиноий таъқиб ва хусусий ҳаётга аралашидан ҳимояланиш, шахсий даҳлсизлик ҳуқуқлари ҳамда адолатли суд муҳокамасига бўлган ҳуқуқини таъминлаш ҳисобланади. Айни пайтда бу борада олдимизда тўсик бўлиб турган айрим ички ва ташқи муаммо ва хавф – хатарларни енгиш давр талабидир.

Мазкур муаммоларнинг айримлари характер касб этиб, нафақат бизга, балки жаҳон ҳамжамяти хавфсизлиги ва тараққиётига ҳар томонлама таҳдид солмоқда.

Инсон тараққиётининг ҳозирги босқичида терроризм, диний экстремизм, сепаратизм ва айирмачилик - халқлар хавфсизлигига, глобал ҳуқуқий тузумга жиддий хавф солувчи таҳдидларнинг бири ҳисобланади [1]. Бугунги кунда жамоат тартиби ва жамоат хавфсизлиги масаласи дунёдаги ҳар бир давлат олдида турган энг муҳим масалалардан биридир. Афсуски, жаҳон ҳамжамятида бундай таҳдидларга қарши курашда янги ижобий натижаларни ишлаб чиқиш ва ушбу турдаги фаолиятга қарши кураш бўйича мавжуд чора-тадбирларни такомиллаштириш зарурияти сезиларли ижобий натижаларга эришилмади. Жаҳон ҳамжамяти томонидан олинган узоқ йиллик тажриба шуни кўрсатадики, террорчилик намоишига қарши курашнинг энг истиқболли стратегияси бу - террорчилик табиатининг жиноятларини содир этиш учун шароит яратадиган ҳаракатларни олдини олиш ва тўхтатишдир. Бундай ҳаракатларга террористик ва экстремистик фаолиятни тарғиб қилиш киради, бу уларга ўзларининг жиноий ташкилотларини мунтазам равишда тўлдириш, зарур маблағларни йиғиш, сиёсий иттифокчилар, тарафдорлар топиш имконини беради [2]. 2001 йил 15 июнь куни Шанхайда қабул қилинган “Терроризм ва экстремизмга қарши кураш” бўйича Шанхай Конвенцияси террористик ва экстремистик ташвиқотнинг энг кучли криминоген салоҳиятини ҳисобга олиб, иштирокчи давлатларни террорчилик фаолиятига ва экстремистик материалларни тайёрлаш жиноятларга қарши жиноий жавобгарликни кучайтириш масаласини илгари сурди. Мазкур конвенция имзоланиш вақтида Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги ва жамоат тартибига таҳдид соладиган диний экстремизм ва сепаратизм ғояларини ўз ичига олган материалларни тайёрлаш, сақлаш, тарқатиш ёки намоиш этиш учун жавобгарликни назарда тутувчи 244¹-моддасини ўзининг қонунчилигига киритиб бўлган эди.

Ижтимоий муносабатлар жамиятнинг борлиги жараёнида, одамлар орасидаги ўзаро муносабатларда шаклланади. Қонун қонун билан яратилмаган бўлса-да, қонун, шу жумладан жиноий қонун, шахс, жамият ва давлат манфаатларига мувофиқ таълим, тараққиёт ва мустаҳкамлашни рағбатлантириши мумкин.

Агар жамоатчилик алоқалари жиноий ҳуқуқнинг ҳимояси остида бўлса, жиноят ҳуқуқини ҳимоя қилиш объекти деб эълон қилинади ва бир ёки бир нечта жиноятнинг объекти бўлган жамоат муносабатларининг алоҳида турига эга жиноятнинг объекти сифатида тан олинади.



Ҳар қандай жиноят содир этилганда жиноят қонунчилиги қоидалари бузилади. Бирок, бу иккинчи даражали, ижтимоий муносабатлар эса биринчи ўринда туради. Уларнинг ҳимояси учун бу норма қонунга киритилган ва мавжуддир. Натижада, жиноят жамоатчиликини бузишга қаратилган [3].

Хозирги кунда “хавфсизлик” тушунчасининг моҳияти дунёда кучаётган глобаллашув жараёнлари билан боғлиқ ҳолда ўзгариб турибди. Уларга ҳудудий яхлитлик ва сиёсий барқарорлик каби анъанавий, ҳарбий – сиёсий мақсадлар билан бир қаторда, ташқи сиёсатнинг иқтисодий, ижтимоий, маданий, мафкуравий, диний соҳалари ҳам киради.

Бугун хавфсизлик дунёнинг глобал муаммоларга айланган. Бунга сабаблар: инсониятнинг мураккаб, ўта зиддиятли, мамлакатларнинг геосиёсий манфаатлари тўқнашаётган, мафкуравий ҳужумлар авж олган ва ўз мувозанатини излаётган дунёда яшаётганлиги; демократик ривожланишини издан чиқарадиган ҳамда инсоният бирлигига раҳна соладиган ғоявий йўналишларнинг вужудга келиши; глобаллашув жараёнининг жамият ҳаётининг барча соҳаларига кириб келаётгани; замонавий ахборот технологиялари соҳасидаги ютуқлардан ёвуз мақсадлар йўлида фойдаланиб, уни тараққиёт кушандасига айлантираётган кучларни мавжудлиги; инсон онги ва қалбини эгаллаш учун мафкуравий курашларнинг кучайиши кабилардир.

«Диний экстремизм, сепаратизм ва ақидапарастлик ғоялари билан йўғрилган, қирғин солишга ёки фуқароларни зўрлик билан кўчириб юборишга даъват этадиган ёхуд аҳоли орасида ваҳима чиқаришга қаратилган маълумотлар ва материалларни ҳар қандай шаклда тарқатиш» тушунчасига Жиноят кодексига шарҳда материаллар сифатида варақалар, плакатлар, китоблар, видеокассеталар ва х.к.лар белгилаб берилган [4].

Кўрсатилган материалларни тарқатиш деганда, уларни осиб қўйиш, оммавий ахборот воситаларида нашр этиш, аудитория олдида, телевидение, радиода чиқиш, варақаларни ёпиштириш, уйларга ташлаш ёки маълумотларни ҳеч бўлмаса, битта шахсга оғзаки ёки ёзма шаклда эълон қилиш тушунтирилган. Бирок, шарҳда «маълумот»лар сифатида нималарни инобатга олиниши лозимлигига ойдинлик киритилмаган.

Мазкур турдаги жиноятларни аниқлаш борасида олиб борилаётган дастлабки суриштирув ва тергов даврида бугунги кунда бутун жаҳон бўйлаб шахслар ёки айнан Ўзбекистон Республикаси фуқаролари дунёнинг исталган давлатларида «Интернет» тизимининг «odnoklassniki.ru», «Facebook», «WhatsApp», «Telegram», «YouTube», «Viber» ва шунга ўхшаш бошқа ижтимоий тармоқларга аъзо бўлиб, уларда ташкил этилган турли (диний) гуруҳларга аъзо бўлиб, маслакдошлари билан ўзаро диний мавзулардаги маълумотлар олиб бораётганликлари ёки турли аудио-видео лавҳаларни бир-бирларига юбораётганликлари аниқланмоқда [5].

Мана шу ҳаракатлар натижасида гуруҳ аъзоларидан исталган аудио-видео файллар ёки диний экстремистик оқим, жамоат, гуруҳ ёки террорчилик ташкилотларига тааллуқли тақиқланган фотосуратларга ўзларининг муносабатлари билдирган ҳолда (хоҳ ижобий «класс» босган ҳолда ёки хох салбий) [6], профилида ушбу маълумот ёки материалга бўлган муносабати гуруҳнинг бошқа аъзоларининг профилларида ҳам акс этади, аниқроқ айтилганда «вертуал» тарзда тарқалади [7].

Хулоса ўрнида, ижтимоий сайтларга аъзо бўлган шахсларнинг гуруҳ аъзолари ўртасида диний экстремизм, сепаратизм ва ақидапарастлик ғоялари билан йўғрилган маълумот ва материалларга ўз муносабатини билдирган тақдирда, уларни автоматик (вертуал) тарзда гуруҳнинг бошқа аъзоларига тарқалиб кетиши жиноят таркибини бериш ёки бермаслигини катъий аниқлаш масаласини кўриб чиқиш лозим бўлади.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, диний мазмундаги материаллар билан вертуал олам ёки шахслар орқали танишишда фарзанд тарбиясига, унинг миллатимизнинг гўзал одоб-ахлоқларига бўлган муносабатларини, миллий ва умуминсоний қадриятларга бўлган ҳурмат ва эҳтиромини, шунингдек ҳар томонлама баркамол бўлиб тарбия топишлари учун ислом динига бекиёс ҳисса қўшган буюк мутафаккир аждодларимиз мероси билан болалиқдан бошлаб, яъни оиладан таништириш борасидаги ҳуқуқий тарғибот ишларини кенг йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ.



Фойдаланилган адабиётлар

1. Тураев Б.О., Закурлаев А.К. Ёшларни ақидапарастлар таъсиридан ҳимоялаш усуллари: Услубий қўлланма. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2010.
2. Қодиров А. Диний экстремизм – сиёсий ҳодиса. Экстремизм, терроризм, гуруҳий ва уюшган жиноятчиликка қарши кураш муаммолари: Илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1999. – Б. 9.
3. Ҳасанбоев Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. – Т.: Тошкент ислом университети, 2014. – 552 б.
4. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий- маърифий асослари: Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир А.С.Очилдиев. Т.: Тошкент ислом университети, 2009. – 246 б.
5. Диний мутаассиблик: моҳият, мақсадлар ва олдини олиш йўллари / А. Ҳасанов, О. Юсупов, К. Шермухамедов ва бошқ. – Т.: Мовароуннахр, 2013. – 160 б.
6. <http://www.markaz.tiu.uz> – Тошкент ислом университети қошидаги Исламшунослик илмий-тадқиқот маркази веб-саҳифаси.
7. <http://akadmvd.uz> – Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси.



AGENTLIK SHARTNOMASINING FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Annakulov Olovuddin Shavkat o'gli

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Telefon: +99899 0179725

olovuddinannaqulov9@gmail.com

Annotatsiya. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivoji hamda barqarorligi albatta, birinchi navbatda uning mukammal va qat'iy huquqiy asoslari mavjudligiga tayaniladi. Shunday ekan, agentlar faoliyatini tartibga soladigan, faoliyat tartibini belgilab beradigan huquqiy asoslarning qonunchiligimizda to'la-to'kis va aniq belgilanishi ushbu fuqarolik munosabatlarning ham keng qamrovda rivoj topishiga olib keladi. Ayni vaqtda fuqarolik qonunchiligimizda vositachilar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan bir qancha normalar mavjud bo'lsada, biroq ular agentlar faoliyatiga doir ba'zi munosabatlarni qamrab ololmaganligi sababli amaliyotda sezilarli muammolarga sabab bo'lmoqda. Shunday ekan, ushbu sohada yetarlicha asosli, keng qamrovli fuqarolik qonun hujjatlarini yaratish kelgusi ushbu soha yutuqlariga keng yo'l ochgan bo'lardi.

Kalit so'zlar. agent, vositachi, vositachilik shartnomasi, delkredere, komitent, uchinchi tomon

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ АГЕНТСКОГО ДОГОВОРА

Аннакулов Оловуддин Шавкат ўғли

Выпускник Ташкентского государственного

юридического университета

Аннотация. Развитие и устойчивость бизнеса в условиях рыночной экономики, безусловно, зависит в первую очередь от того, что он имеет совершенную и прочную правовую базу. Поэтому полное и четкое определение в нашем законодательстве правовых основ, регулирующих деятельность агентов, определяющих порядок их деятельности, приведет к развитию данных гражданско-правовых отношений. В настоящее время в нашем гражданском законодательстве имеется ряд норм, направленных на регулирование деятельности посредников, но на практике они вызывают незначительные проблемы в связи с тем, что не охватывают некоторые аспекты деятельности агентов. Поэтому создание достаточно обоснованного, комплексного гражданского законодательства в этой сфере проложило бы путь к будущим успехам в этой сфере.

Ключевые слова. агент, посредник, посредническое соглашение, делькредере, принципал, третье лицо

CIVIL LAW REGULATION OF THE AGENCY CONTRACT

Annakulov Olovuddin Shavkat o'g'li

Graduate of Tashkent State Law University

Annotation. The development and stability of business in a market economy, of course, depends primarily on the fact that it has a perfect and solid legal framework. Therefore, the full and clear definition in our legislation of the legal framework governing the activities of agents, which determines the order of their activities, will lead to the development of these civil relations. At present, our civil law has a number of norms aimed at regulating the activities of intermediaries, but in practice they cause minor problems due to the fact that they do not cover some aspects of the activities of agents. Therefore, the creation of a sufficiently sound, comprehensive civil legislation in this area would pave the way for future success in this area.

Keywords. agent, intermediary, intermediary agreement, delcredere, principal, third party



Bozor munosabatlariga o'tish yurtimizda jamiyatning iqtisodiy sohasida tub o'zgarishlarni ta'minladi. Mulkchilik shakllarining xilma-xilligini e'tirof etish, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mustaqil va teng huquqli subyektlari paydo bo'lishi, ularning qobiliyatlari va mulkidan tadbirkorlik va mulkchilik uchun erkin foydalanish huquqini ta'minlash va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xo'jalik faoliyati mulk aylanmasida kooperatsiyaning yangi shakllaridan foydalanishni taqozo etdi, bu esa ularni tartibga solishning zamonaviy huquqiy mexanizmlaridan faol foydalanishni belgilab berdi. Bunday hamkorlik shakllaridan biri agentlardir. Bozor munosabatlari sharoitida agentlikning rivojlanishi uni tartibga solishning aniqligi va to'liqligini ta'minlaydigan samarali huquqiy mexanizmni talab qiladi. Shu bilan birga, huquqiy hujjatlar tahlili, shuningdek, o'rganilayotgan muammo bo'yicha hakamlik amaliyoti shuni ko'rsatadiki, fuqarolik qonunchiligida tadbirkorlik faoliyatida agentlik shartnomasini nazarda tutuvchi bo'shliqlar va qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, bu uning amaliy qo'llanilishini murakkablashtiradi. Shunday qilib, ko'plab savollar agentlik shartnomasining huquqiy mohiyatini, vositachilik shartnomalari tizimidagi o'rnini aniqlashni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatida agentlik shartnomasi predmetining mohiyatini aniqlash, shuningdek, uning predmeti tarkibining xususiyatlarini o'rganish, vakolat beruvchining huquq va majburiyatlarining vorisligi muammosini hal qilish zarur.

Tadbirkorlik faoliyatida agentlik shartnomasini rasmiylashtirish huquqni qo'llashda sezilarli qiyinchiliklarga olib keladi, shuning uchun vakillik subyekti bo'lgan mulkning ayrim turlariga egalik huquqini o'tkazish xususiyatlarini aniqlash muammosi alohida ahamiyatga ega. Alohida o'rganish agentlik shartnomasini bekor qilish masalasini, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati sohasida undan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlarning javobgarligini talab qiladi. Zamonaviy yuridik fanda tadbirkorlik faoliyatida agentlik shartnomasini huquqiy tartibga solishni har tomonlama o'rganilmagan. Mavjud ilmiy ishlar agentlik munosabatlarining ayrim jihatlariga bag'ishlangan. Shu bilan birga, ushbu sohada yuzaga keladigan ko'plab muammolar o'rganilmagan yoki munozarali bo'lib qolmoqda. Tadbirkorlik faoliyatida agentlik shartnomasi bo'yicha qonunchilik bazasi ham yetarlicha ishlab chiqilmagan va uni takomillashtirish zarur. Ayni paytda agentlik shartnomasi bozor munosabatlarini tartibga solish mexanizmida nihoyatda samarali vosita hisoblanadi. Agentlik shartnomasi tushunchasi fuqarolik qonunchiligimizda aniq o'z ifodasini topmagan bo'lib, ushbu faoliyatga nisbatan vositachilik shartnomasi qoidalari tatbiq etib kelinadi. Ammo, Rossiya hamda anglo-sakson huquq oilasi amal qiladigan Buyuk Britaniya, Shotlandiya, Hindiston kabi davlatlar qonunchiligida bu agentlik shartnomasi fuqarolik munosabatlarining alohida turi sifatida tartibga solingan. Jumladan, Rossiya fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, agentlik shartnomasi taraflari komitent - buyurtmachi firma va agent (ijrochi) hisoblanadi.¹ Agent haq evaziga uchinchi shaxslarning jismoniy va yuridik shaxslari bilan tuziladigan bitimlarda kompaniya manfaatlarini ifoda etish majburiyatini oladi (xarajatlarni mijoz qoplaydi) yoki komitent nomidan va uning hisobidan mustaqil ravishda o'z nomidan operatsiyalarni tashkil qiladi. Aslida, agentlik shartnomasi ish, topshiriq va pullik xizmatlar bo'yicha shartnomalar bilan umumiy xususiyatlarga ega, ammo ular bilan solishtirganda u tor doirada cheklanib qolmaydi, balki kengroq ma'noga ega. Bu erda agentlik shartnomasi nima ekanligini va u boshqalardan qanday farq qilishini aniqlab olish kerak.

Bugungi kunda agentlik shartnomasi ko'pincha vakolatlar yoki funktsiyalarni uchinchi shaxsga (masalan, tashkilotga) o'tkazish zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

Agentlik shartnomasi - bu hujjat bo'lib, uning qoidalari o'z faoliyatini haq evaziga amalga oshiruvchi agent (ijrochi) va kotib (buyurtmachi) o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Shu bilan birga, ko'ra umumiy qoida agent mijoz nomidan ish yuritadi va bitimlar tuzishi, shuningdek shartnoma qoidalarida nazarda tutilgan boshqa qonuniy harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Agentlik shartnomasi ijrochiga ko'proq imkoniyatlar beradi. Uning faoliyati faqat oldi-sotdi shartnomalarini tuzish bilan cheklanib qolmaydi, u cheksiz mijozlar doirasi bilan o'zaro aloqada bo'lishga, subagentlarni jalb qilishga, marketing va reklama kampaniyalarini o'tkazishga, mahsulotlarni faol targ'ib qilishga va shartnomalar shartlarida taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyatga qaratilgan bo'lishi mumkin. Agentlik ko'plab sohalarida (savdo, turizm, ko'chmas mulk, huquq va boshqalar) qo'llaniladi va juda ko'p umumiy va o'ziga xos shartlarni o'z ichiga olishi mumkin. Hujjatni rasmiylashtirishda siz agentlik shartnomasining istalgan namunasini asos qilib

1 Rossiya Federatsiyasi Fuqrolik kodeksi



olishingiz mumkin, uni o'zingizning xohishingizga ko'ra tahrirlashingiz mumkin, lekin asosiy shartlarni majburiy ko'rsatgan holda:

➤ Shartnomaning predmeti - agent mijozga ko'rsatishi kerak bo'lgan vositachilik xizmatlari (qonuniy harakatlar, ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlar, mijozlarni jalb qilish va h.k.) Shuningdek, vositachining vakolatlari doirasi (yuridik va haqiqiy harakatlar)

➤ Agent maqomi: u direktorning vakili sifatida ishlaydimi yoki o'z nomidan ishlaydimi. Birinchi holda, vositachi tomonidan tuzilgan bitim bo'yicha barcha huquq va majburiyatlar mijoz tomonidan qoplanadi. Ikkinchi holda, javobgarlik agentdan kelib chiqadi.

➤ Agentlik haq evaziga amalga oshiriladi. Ish haqi miqdori va to'lash tartibi shartnomaning muhim qoidalaridan biridir, ammo ular ko'rsatilmagan bo'lsa, vositachi xizmatlari uchun to'lov shartnomada ko'rsatilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi.¹

Shunday ekan, Rossiya qonunchiligi va Angliya qonunchiligidan farqli o'laroq milliy qonunchiligimizda agentlik shartnomasining huquqiy asosi qay tartibda tartibga solingan va ushbu qoidalar bugungi kun shartnomaviy munosbatlarini tartibga solishda yetarlicha takomillashganmi degan savol ustida to'xtaladigan bo'lsak, albatta bir qancha kamchiliklarni uchratamiz. Fuqarolik qonunchiligi bo'yicha agentlik shartnomasi bo'yicha munosabatlarga Fuqarolik kodeksining 48-bobida qat'iy belgilab qo'yilgan vositachilik shartnomasi qoidalari qo'llanilishi nazarda tutiladi. Unga ko'ra, vositachilik shartnomasiga quyidagicha tarif berilgan:

Vositachilik shartnomasi bo'yicha bir taraf (vositachi) ikkinchi tarafning (komitent) topshirig'i bo'yicha o'z nomidan, biroq komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimni haq evaziga tuzish majburiyatini oladi. Vositachilik shartnomasi yozma ravishda tuzilishi shart. Vositachi tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo'yicha, garchi bitimda komitentning nomi tilga olingan yoki u bitimni bajarish bo'yicha uchinchi shaxs bilan bevosita munosabatlarga kirishgan bo'lsa ham, vositachi huquqlarga ega bo'ladi va zimmasiga majburiyat oladi. Vositachilik shartnomasi muayyan muddatga yoki amal qilish muddati ko'rsatilmagan holda, qaysi hududda bajarilishi ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmagan holda, komitent vositachiga topshirgan komitentning manfaatlarini ko'zlab va uning hisobidan bitim tuzish huquqini uchinchi shaxslarga bermaslik haqida majburiyat olgan holda yoki bunday majburiyatni olmagan holda, vositachilik narsasi bo'lgan tovarlarning assortimenti xususida shartlar qo'yilgan yoki qo'yilmagan holda tuzilishi mumkin. Qonunchilikda ayrim turdagi vositachilik shartnomasining xususiyatlari nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Komitent vositachiga haq to'lashi, vositachi bitimning uchinchi shaxs tomonidan bajarilishi uchun kafolatni o'z zimmasiga olgan (delkredere) hollarda esa shartnomada belgilangan miqdorda qo'shimcha haq ham to'lashi shart. Agar shartnomada bu miqdor nazarda tutilgan bo'lmasa va u shartnomaning shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin bo'lmasa, haq miqdori Fuqarolik Kodeksi 356-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq belgilanadi.

Agar vositachilik shartnomasi komitentga bog'liq sabablar bilan bajarilmagan bo'lsa, vositachi vositachilik haqiga, shuningdek qilingan xarajatlarning qoplanishiga bo'lgan huquqini saqlab qoladi. Vositachi uchinchi shaxs bilan o'zi tuzgan bitimdan kelib chiqadigan hamma majburiyatlarni bajarishi va hamma huquqlarni amalga oshirishi shart.² Vositachi o'z zimmasiga olgan topshiriqni komitentning ko'rsatmalariga muvofiq, vositachilik shartnomasida bunday ko'rsatmalar bo'lmaganda esa — ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq komitent uchun eng foydali shartlar asosida bajarishi lozim. Agar vositachi bitimni komitent ko'rsatganidan ham foydaliroq shartlar asosida tuzgan bo'lsa, qo'shimcha foyda, basharti shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, taraflar o'rtasida baravar taqsimlanadi. Vositachi bitimning ijrosi uchun komitentga kafolat bergan (delkredere) hollarda u vositachilik shartnomasida kelishilgan miqdorda qo'shimcha haq olish huquqiga ega bo'ladi. Komitent hisobidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim uchinchi shaxs tomonidan bajarilmaganligi uchun vositachi komitent oldida javobgar bo'lmaydi, vositachi ushbu shaxsni tanlashda zarur ehtiyotkorlik qilmagan yoki bitimning bajarilishiga kafolat bergan (delkredere) hollar bundan mustasno. Vositachi uchinchi shaxs bilan tuzgan bitimni uchinchi shaxs bajarmagan taqdirda, vositachi bu haqda darhol komitentga xabar berishi, zarur dalil-isbotlarni to'plashi va ta'minlashi, shuningdek komitentning talabiga ko'ra bunday bitim yuzasidan huquqlarni talablarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi qoidalarga rioya qilgan holda unga topshirishi shart. Ushbu

1 Bowstead: Reynolds, F.M.B., Bowstead on Agency. 15th ed. -London

2 O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi – T.: “Adolat”, 2021-Y



qoidalar asosida bitim bo'yicha huquqlarni komitentga topshirishga, vositachining uchinchi shaxs bilan huquqlarni bunday berishni taqiqlaydigan yoki cheklaydigan kelishuvidan qat'i nazar, yo'l qo'yiladi. Bu hol vositachi huquqni topshirishni taqiqlash yoki cheklash haqidagi kelishuvni buzib huquqni topshirganligi munosabati bilan uni uchinchi shaxs oldidagi javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda agentlik shartnomasi tadbirkorlik faoliyati sohasida eng keng tarqalgan vositachilik shartnomasi hisoblanadi. Shu bilan birga, agentlik kelishuvlari butun dunyo bo'ylab tovar va xizmatlarni ilgari surishning eng keng tarqalgan usullaridandir. Agentning xatti-harakatlari asosida kimgadir huquq va majburiyatlarni yaratish imkoniyati Angliya-Amerika va kontinental huquq tizimlarida agentlik va vakillik institutlarining asosiy xarakteristikasi hisoblanadi. Biroq, ushbu huquqiy tizimlarda agentlik munosabatlarini tartibga solish har xil bo'lib, bu ularning tub farqining natijasidir. Zamonaviy yuridik fanda tadbirkorlik faoliyatida agentlik shartnomasini huquqiy tartibga solishni har tomonlama o'rganilmagan. Mavjud ilmiy ishlar agentlik munosabatlarining ayrim jihatlariga bag'ishlangan. Shu bilan birga, ushbu sohada yuzaga keladigan ko'plab muammolar o'rganilmagan yoki munozarali bo'lib qolmoqda. Tadbirkorlik faoliyatida agentlik shartnomasi bo'yicha qonunchilik bazasi ham yetarlicha ishlab chiqilmagan va uni takomillashtirish zarur. Ayni paytda agentlik shartnomasi bozor munosabatlarini tartibga solish mexanizmida nihoyatda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
2. ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ ТАҲЛИЛИ ♦ UZBEK LAW REVIEW ♦ ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА 2019 №3 107 бет
3. Барон Ю. Система римского гражданского права. Выпуск третий. Книга IV. Обязательственное право. СПб., 1910.
4. Белкин И. Я. Представительство и доверенность. Лекция для студентов. 2-е изд., перераб. и доп. - Новосибирск, 2000.
5. Barnes A.S. Personal Learning Aid for Business Law. Homewood, 1978.
6. Bowstead: Reynolds, F.M.B., Bowstead on Agency. 15th ed. -London, 1985



SPORT (FUTBOL) HUQUQIDA SHARTNOMA MUNOSABATLARIDAN KELIB CHIQUADIGAN MAJBURIYATLAR

Haydarov Davron Mustaf o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Sport huquqi” magistranti

Davronhaydarov8@gmail.com

Tel:+998990527993

ANNOTATSIYA: So‘nggi yillarda mamlakatimizda futbol sport turini rivojlantirish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, Davlatimiz rahbarining 2019-yil 4-dekabrda “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5887-son Farmoni imzolani, unda millionlar o‘yini bo‘lgan va mamlakatimizda alohida o‘rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab berilgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda Sport (futbol) huquqida shartnoma munosabatlari hamda undan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini huquqiy asoslari va ushbu asoslarni yaratish sportning futbol turini rivojlantirish uchun dolzarb ekanligi ushbu tezis orqali yoritib beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: Sport, Ommaviy sport, Professional sport, Sportchi sport musobaqasi, Professional shartnoma, Rasmiy o‘yinlar, Ro‘yxatdan o‘tkazish, Tashkillashtirilgan futbol, Kafolatlangan davr, Mavsum, Mashg‘ulot kompensatsiyasi, Voyaga yetmagan futbolchi, Akademiya (maktab).

Bugungi kunda barcha sohalar kabi Sport (futbol) huquqida ham ushbu sohada vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asosini yaratish kunning muhim talablaridan biridir. Sport huquqida futbolga oid shartnomaviy munosabatlarni shartli ravishda bir qancha turlarga ajratishimiz mumkin, bular:

- ✓ Futbol klubi hamda futbolchi o‘rtasidagi shartnoma
- ✓ Futbol klubi hamda murabbiy o‘rtasidagi shartnoma
- ✓ Futbol klubi hamda reklama kompaniyasi o‘rtasidagi shartnoma
- ✓ Futbol musobaqasini tashkillashtirishga oid shartnomalar (futbol klublari, tashkilotchilar, ta‘minotchilar hamda muxlislar o‘rtasidagi shartnoma).

Ushbu yuqorida sanab o‘tilgan shartnomalarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan fuqarolik, mehnat hamda aralash shartnoma turlariga ajratishimiz mumkin.

Shu o‘rinda shartnoma tushunchasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 353-moddasiga asosan, ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyilishi belgilangan.

Bundan tashqari ushbu kodeksning 354-moddasida fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkinligi, shartnoma tuzishga majbur qilishga yo‘l qo‘yilmasligi, taraflarning qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkinligi belgilab o‘tilgan.

Shuni ta‘kidlashimiz lozimki, yuqorida shartnoma to‘g‘risidagi qoida shartnomaning umumiy qoidalari hisoblanib fuqarolik hamda mehnat shartnomalariga nisbatan tadbiq etiladi.

Shu o‘rinda aralash shartnomalar tushunchasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Fuqarolik kodeksning 354-moddasida taraflar turli shartnomalarning elementlarini o‘z ichiga oladigan shartnoma (aralash shartnoma) tuzishlari mumkinligi qayd qilib o‘tilgan. Aralash shartnoma bo‘yicha taraflarning munosabatlarga, agar taraflarning kelishuvidan yoki aralash shartnomaning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, elementlari aralash shartnomada bo‘lgan shartnomalar to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi.

Sport (futbol) huquqida shartnoma munosabatlari kelib chiqadigan majburiyatlarga bevosita to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Futbol klubi hamda futbolchi o‘rtasida tuziladigan shartnomalarda qoida tariqasida quydagilar ko‘rsatib o‘tiladi:

1. Futbol klubining Professional futbolchi oldidagi majburiyatlari
 - a) shartnoma shartlarini bajarish;
 - b) shartnomaga binoan futbolchining maoshlarini o‘z vaqtida to‘lab borish;



c) futbolchining mashg'ulot o'tkazishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berish;
d) futbolchi jarohatlanganda uni davolash yuzasidan barcha choralarni ko'rish;
e) shartnoma klub tashabbusi bilan bir tamonlama bekor qilinganda shartnomada ko'rsatilgan kompensatsiya to'lovini amalga oshirish;

2. Professional futbolchining Futbol klubi oldidagi majburiyatlari

- a) shartnoma shartlarini bajarish;
- b) klubning ichki tartib qoidalariga amal qilish;
- c) klubning "Imiji"ni hurmat qilish;
- d) Shartnomada shart qilib ko'rsatilgan ishni lozim darajada bajarishi;
- e) jamoada birdamlik muhitini saqlash;
- f) futbol jarayonida murabbiyning ko'rsatmalariga to'liq rioya qilish;

Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz lozimki, Futbol klubi hamda Professional futbolchi o'rtasidagi tuzilgan shartnoma Mehnat shartnomasi hisoblanadi hamda tomonlar ushbu shartnoma orqali mehnat munosabatlariga kirishga hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 1-moddasi uchinchi xat boshida Mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek ayrim fuqarolar ixtiyorida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan jismoniy shaxslarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinishi belgilangan hamda bu "Mehnati shartnomasi" hisoblanishi qayd etilgan.

Ushbu Kodeksning 176 va 177-moddalarida tomonlarning o'zaro burchlari ham ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra xodimning burchlari quydagilar hisoblanadi:

Xodim o'z mehnat vazifalarini halol, vijdonan bajarishi, mehnat intizomiga rioya qilishi, ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini o'z vaqtida va aniq bajarishi, texnologiya intizomiga, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga rioya qilishi, ish beruvchining mol-mulkini avaylab asrashi shartligi belgilangan.

Shuningdek, xodimning mehnat vazifalari ichki tartib qoidalarida, intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarda, korxonada qabul qilinadigan lokal hujjatlarda (jamoat shartnomalarida, yo'riqnomalar va hokazolarda), mehnat shartnomasida aniq belgilab qo'yilishi qayd qilingan.

O'z navbatida ish beruvchining burchlari sifatida quydagilar belgilangan:

Ish beruvchi xodimlar mehnatini tashkil qilishi, qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini yaratib berishi, mehnat va ishlab chiqarish intizomini ta'minlashi, mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etishi, xodimlarning ehtiyoj va talablariga e'tibor bilan qarashi, ularning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilab borishi, ushbu Kodeksga muvofiq jamoat shartnomalarini tuzishi shart.

Ish beruvchi xodimdan uning mehnat vazifalari doirasiga kirmaydigan ishlarni bajarishni, qonunga xilof yoki xodim va boshqa shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'diruvchi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar qilishni talab etishga haqli emas hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda O'zbekistonda sport sohasidagi shartnomaviy munosabatlar bo'yicha ko'plab nizolar vujudga kelmoqda. Buning asosiy sababi esa sport shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik masalalari bo'yicha milliy qonunchilikda to'liq qamrab olinmaganligida. Birgina misol, yuqorida ta'kidlanganidek Futbol klubi hamda Professional futbolchi o'rtasida tuzilgan shartnomani "Mehnati shartnomasi" sifatida ko'radigan bo'lsak, amaldagi Mehnat Kodeksida sport shartnomalari to'g'risida birorta qoida mavjud emas, shuningdek, ushbu Kodeksda sportning o'ziga xosligidan kelib chiqib birorta imtiyoz belgilanmagan.

Shunday bo'lsada bugungi kunda sportga berilayotgan e'tibor hamda mamlakatimizda sportning rivojlanish tendensiyasi ushbu sohada ham tomonlarning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlay oladigan huquqiy asoslar vujudga kelayotganligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-son Farmoni

2. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi Ijroiya qo'mitasi Byurosining 2020-yil 31-dekabrda №1 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglament".



3. O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi Ijroiya qo‘mitasi byurosining
4. 2019-yil 4-martdagi 4-sonli qarori (4-ilova) bilan Tasdiqlangan “INTIZOM KODEKSI”. Toshkent shahri 2019 yil
5. O‘zbekiston Respublikasining 04.09.2015-yildagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘RQ-394-son Qonuni.
6. [www. Lex. uz](http://www.Lex.uz)
7. www. tdpu. uz
8. www. Ziyonet. uz
9. www. edu. uz



АСЕАН И ЕГО ПРАВОВОЙ СТАТУС

Ибрагимов Ойбек

Научный сотрудник. Дом-музей Айбека

Тел. +998 93 1717917

Oybek911911

АННОТАЦИЯ: Вопросы связанные с АСЕАН всегда актуальны и интересуют определённый, широкий круг международников, исследователей, читателей. В рамках данной статьи прослежены пути формирования и развития АСЕАН и его юридический статус. Актуальность представленной работы подчеркивается стремлением при разрешении актуальных проблем современной мировой политики ставить во главу угла понятие АСЕАН и его правовой статус.

Ключевые слова: АСЕАН, Россия, Китай, Бангкокская декларация, Шанхайская организация сотрудничества.

В мире есть различные региональные организации, которые доказали свою значимость, полезность и эффективность. Но, хотелось бы отметить, ассоциацию, его правовые стороны, которая заняла особое место. Это Ассоциация государств Юго-Восточной Азии (АСЕАН).

Она была создана в 1967 году и за всё время своего существования успешно подтвердила свою жизнеспособность доказала, что может быть ядром более широкого международного сотрудничества, в котором принимают участие практически все ведущие государства мира. За прошедшие года ассоциация постепенно превратилась в работающий механизм для решения политических, экономических, оборонных, полицейских, гуманитарных и других сотрудничеств между странами-членами как в многостороннем, так и в двустороннем форматах [1].

Следует отметить, несмотря на проблемы, доставшиеся вошедшим государствам от периода колониальной зависимости, они сумели проявить политическую волю и превратить ассоциацию в эффективный механизм преодоления своих разногласий и решения конфликтов. Благодаря этому, АСЕАН с годами стал фактором поддержания мира, стабильности и безопасности в одном из самых беспокойных и опасных регионов мира [2].

Сохранившиеся территориальные проблемы, серьезные торгово-экономические трения, религиозные различия и национальные распри, побудили шесть государств-членов в 60-70-х годах осознать, что они «находятся на одном берегу» и их выживание на фоне мировых событий и острых потрясений зависит только от них самих [3].

Именно это стало толчком для лидеров шести государств, отодвинуть в сторону противоречия и забыть о прежних обидах, и приступить к совместному строительству своего нового будущего [4]. Основная задача была создать структуру регионального диалога и сотрудничества. В августе 1967 г. министры иностранных дел пяти государств: Индонезии, Малайзии, Филиппин, Сингапура и Таиланда, – провели заседание в Бангкоке, Таиланд, и подписали Бангкокскую Декларацию, на основании которой была создана Ассоциация государств Юго-Восточной Азии (АСЕАН).

Тема международно-правовой статус ассоциации государство Юго-Восточной Азии АСЕАН предметно проанализирована в исследованиях М.С.Малкина. Где рассмотрены вопросы как становление международно-правового статуса АСЕАН.; Предметная компетенция АСЕАН.; международно-правовые основы сотрудничества АСЕАН с третьими сторонами [5].

При рассмотрении транснационального и международного правового становления АСЕАН нужно будет выделить четыре этапа: 1. Этап первый с 1967 по 1976 первые шаги к субрегиональному объединению. АСЕАН стал поддерживать безопасность режимов и политических элит пятых стран-учредителей (Индонезии, Малайзии, Сингапура, Таиланда и Филиппин);

2. Этап второй с 1976 по 1994 укрепление внутривнутриполитической структуры АСЕАН (создание Секретариата, института регулярных встреч министров экономики и др.), а также усиление экономической интеграции, расширение участников Ассоциации (Бруней, 1984 г.);



3. Этап третий с 1995 по 2007) становление АСЕАН из субрегиональной в региональную организацию, Это можно отметить включением в ее состав всех государств региона (Вьетнам в 1995 г.; Лаос и Мьянма (Янгон) в 1997 г.; Камбоджа в 1999 г.), укрепление их безопасности согласно принятому Договору о создании безъядерной зоны в Юго-Восточной Азии (1995);

4. Этап четвертый с 2007 по настоящее время, АСЕАН начал налаживать партнерские отношения с крупными игроками международного права таких как ЕС, Россия и Китай. Начал укрепление институциональных основ согласно Уставу, который был принят в 2007 г., [6]

Сегодня АСЕАН стала одной из региональных интернациональных ассоциаций. После утверждения «Юридического Устава» АСЕАН, мы отметим, что закончился на этом переходный этап ассоциации. АСЕАН из псевдо-международной ассоциации стала реальной Ассоциацией с четкими целями и задачами [7].

Несмотря на видимые факты, в доктрине международного права все еще идут дискуссии по поводу правотворчества АСЕАН. В связи с этим хочется выделить, что в международном юридическом праве утвержденный устав является главным признаком международной ассоциацией. Для этого рассматривается соглашение между государствами и странами (название его учредительный акт международной ассоциации или ассоциации), в нем закрепляются правовые и институциональные характеристики создаваемой ассоциации.

В становление деятельности АСЕАН стоят такие акты и документы: 1/»Бангкокскую» декларацию утвержденную в 1967г. 2/Декларационное согласие АСЕАН утвержденное в 1976; 3/Вторая Декларация это Балийское согласие-2, от 2003г.; 4/ Акт о дружбе и сотрудничестве в Юго-Восточной Азии («Балийский» договор, 1976 г.) и другие акты, принятые органами АСЕАН.

Следует отметить, что за 40 лет существования АСЕАН - она получила международную правоспособность только в 2007 г., после принятия Устав АСЕАН. До этого не было отмечено наличие международной правоспособности, хотя у АСЕАН существовали некоторые признаки международной организации такие как наличие штаб-квартиры, собственного бюджета, Секретариата и других органов [8].

В нормативной правовой практике АСЕАН не является исключительным случаем [9]. Мы можем рассмотреть на примере: Большой восьмерки или Группа восьми, она относится к неформальным международным учреждениям или так называемым пара-организациям (от греч. пара — схожий, подобный). К этим организациям можно отнести Арктический Совет, Группу 77, Парижский клуб стран-кредиторов и Лондонский клуб частных банков, кредитующих страны.

Пара-организациям присущи постоянство и периодичность работы, но не обязательны привязки к определенным местам; постоянный и ограниченный состав участников. Они отличаются от международных организаций тем, что официально наделяются правоспособностью, хотя функционируют с определенным составом, но без основополагающих актов, не имеют официальной структуры организации.

Исследователь Г.М. Вельяминов показал, что международную пара-организацию можно отметить, как неформальное объединение, наподобие международной организации, но не является таковой, и не обладающее право-субъектными и правотворческими свойствами и явственными институциональными качествами.

В пример мы приведем одну из организаций — это Большая восьмерка. Большая восьмерка — это не международная организация, она не основана на международном договоре, у нее нет устава и секретариата. Решения «восьмерки» не имеют юридической силы. На их встречах обсуждается о фиксации намерений сторон придерживаясь согласованной линии или дают рекомендации другим участникам международной арене для применения определенных подходов в решении тех или иных вопросов.

На Саммите Большой восьмерки принимаются решения по главным проблемам мировой экономики и уже в силу этого не может не оказывать влияние на мировую политику. На сегодняшний день способность государства влиять на структуру мировой экономики является одним из главных факторов его могущества.

Совещание Большой восьмерки принимает решения, также по глобальным политическим проблемам. При ограниченном составе стран-участниц эта пара-организация обладает



практически уникальной компетенцией, в том числе в рассмотрении любых международных экономических проблем глобального или локального значения.

Международно-правовой статус международных организаций представляется непростым вопросом международного права. Ранее в российской международно-правовой литературе была оживленная дискуссия об определении места и характера Содружества Независимых Государств (СНГ). Некоторые ученые (В.В. Пустогаров, И.П. Блищенко) думали, что СНГ по своим целям и принципам, построению и формам деятельности относится к международным организациям, имеющие существенные конфедеративные элементы.

Они думали, что СНГ — это новое, еще не известное ни науке, ни практике международное объединение, которое можно определить как международно-правовое «*sui generis*», которое носит переходный характер.

Важным аспектом в данной дискуссии стало решение Экономического суда СНГ № 01-1/2-98 от 23 июня 1998 г., которое было вынесено по запросу Исполнительного секретариата СНГ, в этом решении было решено признать, что Содружество является субъектом международного права. Аналогичная проблема сложилась и с Европейским союзом (ЕС), которое долгое время не признавалось субъектом международного права.

Нужно отметить, что АСЕАН с 1967 по 2007 г. не являлась международной межправительственной ассоциацией классического типа, хотя у нее были некоторые признаки международной ассоциации.

Процесс правового регулирования завершился только 40 лет спустя после утверждения Устава АСЕАН, в котором были указаны цели и принципы деятельности Ассоциации. В соответствии с Уставом организационную структуру АСЕАН образуют [10]: 1. саммит АСЕАН; 2. Координационный Совет АСЕАН; 3. Советы Сообщества АСЕАН; 4. Министерские органы АСЕАН;

5. Комитет постоянных представителей АСЕАН; 6. Генеральный секретарь и Секретариат АСЕАН; 7. национальные секретариаты АСЕАН и его зарубежные комитеты; 8. Фонд АСЕАН; 10. Орган АСЕАН по правам человека.

Хотелось бы отметить очень важный аспект — это формирование Ведомства АСЕАН по правам человека в формате Межгосударственного комитета по правам человека. Для АСЕАН — это большое продвижение на становление пути развития прав человека в этом регионе, который существенно проседает от стран Европы, Америки и Африки, т. к. в этих странах уже долгое время функционирует территориальные системы защиты прав человека.

Хотелось бы выделить, что территориальная система защиты прав человека в ЮВА все еще находится в стадии становления. Были приняты только определённые документы, которые в той или иной мере отражают тенденции формирования и развития концепции международной системы защиты прав человека в Азии.

На данный момент не было сформировано ни одного международного регионального или субрегионального органа, отвечающего за защиту имплементацию прав человека. В 2009 г. было учреждено первое в Азии международный правозащитный контрольный орган и это Межправительственная комиссия по правам человека. Для АСЕАН этот шаг нужно рассмотреть, как знакомый вклад в защиту и поощрение прав человека на региональном и глобальном уровнях.

В соответствии с Декларацией, таковыми целями являются: экономическое развитие стран, социальный прогресс и культурное развитие, а также установление мира и стабильности через приверженность принципам Устава ООН. Таким образом, была обусловлена открытость Ассоциации для участия всех стран участниц Юго-Восточной Азии (ЮВА), согласившимся следовать принципам и целям организации [11].

Использованная литература:

1. <http://www.geopolitics.ru/2012/08/associaciya-gosudarstv-yugo-vostochnoj-azii/>
2. <https://www.britannica.com/topic/ASEAN>
3. <https://www.dfat.gov.au/international-relations/regional-architecture/asean>
4. <https://interaffairs.ru/jauthor/material/1836>
5. <https://asean.mgimo.ru/asean/ASEAN>



6. АСЕАН в начале XXI века: Актуальные проблемы и перспективы / Отв. ред.: Е. В. Кобелев, Г. М. Локшин, Н. П. Малетин; Институт Дальнего Востока РАН. — М.: Форум, 2010. — 368 с. — 300 экз. — ISBN 978-5-8199-0421-3.

7. <https://www.cfr.org/background/what-asean>

8. <https://www.nti.org/education-center/treaties-and-regimes/association-southeast-asian-nations-asean/>

9. http://www.ved.gov.ru/mdb/international_org/regional_org/asean/

10. <http://www.dslib.net/pravo-evropy/mezhdunarodno-pravovoj-status-associacii-gosudarstv-jugo-vostochnoj-azii-asean.html>

11. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_005014469/



ЎЗБЕКИСТОНДА ЯККА МЕХНАТ НИЗОЛАРИНИ СУД ТАРТИБИДА КЎРИБ ЧИҚИШ ТАРТИБИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ.

Маматкулов Камолиддин Галабаевич
Наманган давлат университети магистри.
+998973247252
kmg051035@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада Якка меҳнат низолари тушунчасига қисқача таъриф берилган, якка меҳнат низоларини суд тартибида кўриб чиқиш тартиби, шунингдек якка меҳнат низоларини суд тартибида кўриб чиқишдаги ўзига хос хусусиятлари ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: меҳнат, низолар, суд, меҳнат шартнома, процессуал, даъво, фуқаролик, иш ҳақи, комиссияси, вакили.

Якка меҳнат низолари — бу иш берувчи ва ходим ўртасида меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ва бошқа норматив ҳужжатларни, меҳнат шартномасида назарда тутилган меҳнат шартларини қўлланиш юзасидан келиб чиққан келишмовчиликлардир. Бундай ҳолларда низоинг ходим манфаатини ифода этувчи тарафи бўлиб ходимларнинг вакиллик органи иштирок этиши мумкин.[1]

Меҳнатга оид ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низоларга доир ишлар фуқаролик суди ишларини юритишнинг умумий қоидалари, яъни даъво ишларини юритиш тартибида кўрилади.

Бундай турдаги фуқаролик ишлари ўзига хос хусусиятларга эга. Бу хусусиятлар низоли моддий-ҳуқуқий муносабатларга хос бўлиб, фақат моддий ҳуқуқ, яъни меҳнат ҳуқуқи нормаларида эмас, балки фуқаролик процессуал ҳуқуқ нормаларида ҳам назарда тутилган. Бу хусусиятлар судлар томонидан меҳнат ишлари бўйича даъво аризаларини қабул қилишда, суд мажлисида кўриш учун уларни тайёрлашда ва иш юритишнинг кейинги бошқа босқичларида ҳам эътиборга олиниши керак.

Қуйидагилар меҳнат низосини кўришни сўраб мурожаат қилиш ҳуқуқига эгадирлар:

- 1) ходим, касаба уюшмаси ёки ходимларнинг бошқа вакиллик органи;
- 2) меҳнатнинг ҳуқуқ бўйича инспектори;
- 3) иш берувчи, ходим томонидан етказилган зарарни қоплаш ҳақидаги низолар бўйича меҳнат низолари комиссиясининг қарорига рози бўлмаган тақдирда;
- 4) прокурор

Судья бундай ишлар бўйича аризаларни қабул қилишда Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик-процессуал кодексининг 26 ва 182-моддаларида назарда тутилган умумий қоидага амал қилиб, шундай ишларнинг судга таалукли эмаслигини белгилаши керак. Меҳнат ҳуқуқий муносабатларидан келиб чиқадиган низоли ишларнинг судга таалукли ёки таалукли эмаслиги Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 1998 йил 17 апрелдаги Пленумининг қарорида кўрсатиб ўтилган.

Низонинг предмети ва ишда қатнашувчи субъектларга қараб, меҳнат ҳуқуқи нормаларида бундай ишни ҳал қилишнинг ҳар хил тартиби белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 260-моддасида кўрсатилганидек, ходим меҳнат низолари бўйича меҳнат низолари комиссиясига ёки бевосита судга мурожаат этишга ҳақли. Меҳнат кодексининг 269-моддасига кўра, ходим ўз хоҳишига кўра қуйидаги ҳолларда меҳнат низосини ҳал қилиш учун меҳнат низолари комиссияларига мурожаат этмасдан, бевосита туманлараро, туман (шаҳар) судларига ариза билан мурожаат қилишга ҳақли:

- 1) агар ходимнинг иш жойида меҳнат низолари комиссияси тузилмаган бўлса;
- 2) улар меҳнат шартномасини бекор қилиш асосларидан қатъи назар, ишга тиклаш тўғрисида, меҳнат шартномасини бекор қилиш вақти ва асослари таърифини ўзгартириш тўғрисида, мажбурий прогул ёки кам ҳақ тўланадиган ишни бажарган вақт учун ҳақ тўлашга доир бўлса;
- 3) улар ходим томонидан иш берувчига етказилган зарарнинг тўланиши ҳақида бўлса;
- 4) улар меҳнат вазифаларини бажараётганда ходимнинг соғлиғига шикаст етказилгани



оқибатидаги зарарни (шу жумладан маънавий зарарни) ёки унинг мол-мулкига етказилган зарарни иш берувчи томонидан тўланиши ҳақида бўлса;

5) улар ушбу Кодекс 78-моддасининг иккинчи қисмиданазарда тутилган ҳолларда ишга қабул қилиш рад этилганлиги ҳақида бўлса;

6) улар иш берувчи ва касаба уюшмаси қўмитаси ёки ходимларнинг бошқа вакиллик органи билан олдиндан келишиб ҳал этилган масалалар юзасидан келиб чиққан бўлса.

Ушбу модданинг биринчи қисмида санаб ўтилган меҳнат низоларидан бошқа низолар ҳам ходимнинг хоҳишига кўра бевосита туман (шаҳар) судларида кўрилади.

Мансабдор шахслар томонидан иш берувчига етказилган моддий зарарни тўлаш тўғрисидаги меҳнат низолари, агар мансабдор шахс етказган зарар иқтисодий низони кўриб чиқиш пайтида аниқланган бўлса, иқтисодий судлар томонидан ҳам кўриб чиқилади.

Меҳнат низоси меҳнат низолари комиссиясида кўрилмаган деган важ билан ходимнинг аризасини кўриб чиқишни рад этишга йўл қўйилмайди.

Меҳнат кодекси 269-моддасининг 1-қисмида санаб ўтилган меҳнат низоларидан бошқа низолар ҳам ходимнинг хоҳишига кўра бевосита туманлараро судларида кўрилади.

Қонунлар меҳнат низоси меҳнат низолари комиссиясида кўрилмаган деган важ билан ходимнинг аризасини кўриб чиқишни судда рад этилишига йўл қўйилмайди. Меҳнат низоларини туманлараро ,судларида кўриш тартиби Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат ва Фуқаролик –процессуал кодекслари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленумининг “Судлар томонидан меҳнат шартномаси(контракт)ни тузиш,ўзгартириш ва бекор қилишни тартибга солувчи қонунларнинг қўлланиши ҳақида”ги 1998 йил 17 апрель қарорида белгилаб берилган.

Даъво аризасини қабул қилишни рад этиш ва меҳнат иши бўйича кўзғатилган ишнинг бекор қилиниши ФПКнинг 194- ва 204-моддаларида назарда тутилган барча асослар бўйича амалга оширилади. Даъво аризаси ФПКнинг 33-моддасида кўрсатилганидек, жавобгарнинг яшаб турган ёки доимий машғул бўлган жойидаги судга берилади. ФПКнинг 34-моддасида кўрсатилган ҳолдаги даъволар даъвогар яшаш жойидаги судга тақдим этилиши мумкин.

Ходимлар меҳнат ҳақини ундириш ва меҳнат муносабатларидан келиб чиқадиган бошқа талаблар тўғрисидаги даъволар юзасидан давлат даромадларига суд харажатларини ҳамда давлат божини тўлашдан озод қилинадилар. Бундай талаблар қаноатлантирилганида, суд харажатлари даъвонинг қаноатлантирилган қисмига нисбатан жавобгардан ундирилади. Агар даъво талаблари рад этилса ,суд харажатлари давлат ҳисобига ўтазилади.[2] Бу меҳнат ҳуқуқий муносабатларидан келиб чиқадиган ишларга хос хусусиятлардир.

Ўзбекистон Республикасининг “Давлат божи тўғрисида”ги қонунинг 19-моддасига мувофиқ, даъвогар давлат божини тўлашдан озод этилган тақдирда даъво қаноатлантирилса, давлат божи жавобгардан (агар у давлат божини тўлашдан озод этилмаган бўлса) давлат даромадига белгиланган даъво суммасига мувофиқ ундирилади. Ушбу моддада ёки бирор бир нормада тарафлар келишув битимини тузсалар, давлат божининг муайян қисми қайтарилишига оид норма мавжуд эмас. Бу ҳолат тарафларнинг келишув битими тузишига қисман бўлсада монетар қилувчи ҳолатлардан саналади.[3] Якка меҳнат низоларини суд тартибида кўришда томонлар келишув битими тузганда томонларни давлат божидан озод этилиши белгилаб қўйилиши керак. Шунда меҳнат низоларини суд амалиётида келишув битимларини салмоғи ортишига омил бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси <http://test.lex.uz/docs/142859>
2. Судлар томонидан меҳнат шартномаси (контракт)ни бекор қилишни тартибга солувчи қонунларнинг қўлланилиши ҳақида <http://test.lex.uz/docs/1444779>
4. Қучкаров. Х.А. Меҳнат низоларини судгача ва суд тартибида кўриб чиқишни такомиллаштириш масалалари// Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2021), Б. 140-150
5. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодекси. Тошкент «Yuridik adabiyotlar publish» 2020 й



О‘SMIRLAR О‘RTASIDAGI HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISH

Qayumova Dildora Shokirovna

Farg‘ona viloyati yuridik
texnikumi yuridik klinika rahbari

Annotatsiya: ushbu maqolada voyaga yetmagan o‘smirlar o‘rtasidagi huquqbuzarlik, qonunbuzarlikni sabablari hamda ularni oldini olishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: voyaga yetmagan, o‘smirlar, huquqbuzarlik, qonunbuzarlik.

O‘smirlar o‘rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishi bu asosan “tarbiyasi og‘ir” bo‘lgan o‘smirlarni nazoratsizlikda qoldirilishi, ya’ni oilaning, mahallaning, jamiyatning e’tiboridan chetda qolishi sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh Mirziyoyev raisligida 2017-yil 15-noyabr kuni o‘tkazilgan mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu borada mavjud muammolar va ularni hal etish masalalariga bag‘ishlangan video– selektor yig‘ilishidagi nutqida ta’kidlanganidek: “Huquqbuzarliklar o‘z-o‘zidan sodir etilmaydi. Asosiy masala huquqbuzarliklarning oqibatlarini bilan kurashish emas, balki barvaqt oldini olish, sodir etishga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni o‘z vaqtida bartaraf etishdan iboratdir”.

Xulq-atvori og‘ir o‘smirlarning shaxsi shakllanishiga ko‘pchilik hollarda oilaviy shart-sharoitlar, ota-onaning yoki qarindoshlarning ichkilikbozligi, ularning axloqqa zid xulq-atvori salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlik yoshida katta yoshdagilar, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan kelishmovchiliklar ro‘yobga chiqadiki, bu faqat tabiiy o‘sh jarayoni bilangina emas, balki, o‘smirni katta yoshdagilar va tengdoshlararo munosabatlari o‘zgarishi bilan izohlanadi.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarni o‘rganishda ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik sabablar mavjudligini hisobga olish, huquqbuzarlikning kelib chiqish sabablarini diagnostika yordamida aniqlash, tarbiyasi qiyin o‘quvchilar shaxsini aniqlash ularning psixologik munosabatlarini inobatga olgan holda tipologiyasini tuzish tipologik xususiyatlarga binoan individual ish olib borish, qonunbuzarlikning oldini olib, tarbiyasi qiyin bolalarni qayta tarbiyalash metodlarini amalga tadbir qilish, bu muammoning yechilishiga yordam beradi. Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasida turli xil illatlarni oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, 1991-yil 20-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 2016–yilga kelib “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bundan tashqari, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi hamda qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi.

O‘smirlar o‘rtasida huquqbuzarlikni kamaytirish uchun birinchi navbatda o‘tkaziladigan tadbir bu – huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan voyaga yetmaganlarni aniqlab, profilaktik hisobga olish va sog‘lom turmush tarziga qaytarish hisoblanadi. Bunga nafaqat huquq-tartibot organlari, balki barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faollari birdek mas’ul bo‘lishi lozim.

Prezidentimiz tashabbusi bilan har haftaning payshanba kuni mamlakatimizda Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish profilaktika kuni sifatida belgilangani bolalarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, o‘smirlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini mustahkamlash, ota-onalar hamda vasiylik organlarining mas’uliyatini oshirish borasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda muhim yo‘nalish bo‘ldi.

Yuqoridagilarga asoslanib, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Farzand niholga o‘xshaydi. Uni yoshligidan qanday tarbiyalansa, shunday voyaga yetadi. Bunda, albatta, oila, mahalla, jamiyatdagi muhit muhim ahamiyatga ega. O‘zi, oilasi, xalqi, ma’naviy ildizlari haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lgan bola jinoyat ko‘chasiga qadam bosmaydi. Bunga erishish uchun jamiyatning har bir a’zosi zimmasidagi mas’uliyatni chuqur his etishi, burchini sidqidildan bajarishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tartib-intizom va mas’uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash– huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir. Xalq so‘zi. 2017
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarlikla profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada ta komillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5153-sonli qarori. www.uza.uz



HOZIRGI KUNDA AXLOQLI YOSHLARNING TARBİYALASH USULLARI

Adambayev Umidbek Xaitbayevich
TCHDPI o'qituvchisi
Turdaliyeva Hulkaroy Shuhrat qizi
TCHDPI talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi kunda axloqli yoshlarning tarbiyalash usullari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: xulq, bola tarbiyasi, oila tarbiyasi, aqliy qiziqish, mehnat tarbiya.

Hozirgi zamon oilalarning tarbiya jabhalaridagi umumiy va xususiy tomonlarini, vazifalarini bilish nihoyatda ahamiyatlidir. Chunki bir bolalarning bog'cha va maktabda olayotgan bilimlarini, aqliy qiziqishlarini hisobga olganimizdagina oilaviy tarbiya ishi samaradorligini ta'minlashimiz mumkin. Biz tarbiyaviy vazifalarimiz xususiyatlaridan kelib chiqib, Bolalar kamolotiga yakka holda yondashish, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiya ehtiyojini shakllantirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakasi, maishiy mehnat, ijtimoiy mehnatga ma'naviy-ruhiy tayyorlash kabi mezon va qoidalarni hisobga olib ish tutishimiz ijobiy maqsadga muvofiqdir. Busiz tarbiya jarayonini ijobiy hal qila olmaymiz.

Oiladagi tarbiyaviy jabhalarning saviyasi uning tuzilishiga, ko'p bolalik ikki kam bolalik, ikki ikki uch avlodning birgalikda yashashi, ota-onaning mavjudligi Ikki ulardan birortasining yo'qligi, har ikki jinsdagi (o'g'il-qiz) bolalarining borligiga, ota-onalarning ma'lumot saviyasiga, oila a'zolarining ijtimoiy ahvoliga, bolalar tarbiyasi bo'yicha o'z burchlarini his etishlari, er va xotinning tarbiyaviy jabhalarga munosabati kabi ijtimoiy omillarga bog'liq¹.

Bolalar tarbiyasi oilaning insonni bunyod etuvchi tabiiy va ijtimoiy mohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shu ma'noda tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra shunday bir jarayonki, u tarbiyalanuvchining biologik, ijtimoiy ehtiyoj turlarini, o'zining qadri, qiziqish va g'oyalarini jamiyat talablariga bo'ysundirishda namoyon bo'ladi.

Bola oilada, maktabda, ota-onalar bilan munosabatda, jamoat joylarida, katta yoshdagilar, o'rtoqlari bilan muloqotda tajriba orttirib boradi.

Oilalarda bolalarga tarbiya berishda ota-onaning namunasi, ularning mehnatsevarligi, oilaviy ishlarga javobgarligi, ish yuritishi, o'g'il bolalarga nisbatan otaning, qizlarga esa onaning ustozlik, rahnamolik ishlari asosiy o'rinni egallaydi.

Yoshlarni oilaviy hayotga, nikohga tayyorlashda, oila mustahkamligini ta'minlashda nikohlanuvchilarning ota-onalari saviyasiga, turmush tarziga, xarakter xususiyatlariga va nihoyat, kasb faoliyatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.²

Tug'ilish axloqning rivojlanishi, o'sish ko'rsatkichidir.³ Biroq keyingi o'n yilliklar ichida ko'p bolali oilalarning keskin kamayishi hisobiga bitta, ikkita bola bilan cheklanish, oilada tug'ilishning pasayishiga olib keldi.

Bolaning to'g'ri o'sishi, odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, ularning qayg'ulariga hamdardlik ko'rsatish hissi tarkib topishi uchun oilada hech bo'lmaganda o'ziga o'xshash yana bir kishi (qizmi, o'g'ilmi) bo'lishi zarurdir. Oilada kamida ikkita farzandning bo'lishi faqat ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yaxshilabgina qolmasdan, balki jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga ham mos keladi.⁴

Ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan bolasizlik ikki kam bolalik oila mustahkamligini ta'minlamaydi. Mamlakatimizdagi oilaviy ajralishlarning aksariyati ikki bolasi yo'q, ikki kam bolali oilalarga to'g'ri kelmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek ota-ona yakka farzandning tarbiyasiga nihoyatda ko'p vaqt ajratadi, ikki ko'p hollarda salbiy natija ko'rishadi. Oilada yakka farzand tarbiyasidagi kamchilik natijalari bola o'smirlik yoshiga yetganida birdan yuzaga chiqadi, va nihoyat, bu kamchilik o'smir o'sib, ulg'ayib, o'zi oila qurganda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Oilalar tarbiyasida sharoit, ya'ni ularning qishloq ikki shaharda yashashlari ham bolalar tarbiyasiga u ikki bu darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Odatda, qishloq sharoitida yashovchi oila farzandlari yoshligidan boshlab kuchi yetadigan ishlarga jalb etiladi, ya'ni ular uy yumushlarini bajarish, uy hayvonlarini parvarishlash, ularga yem, suv berish, ota-onalariga dalalardagi hosilni, poliz ekinlari, mevalarini yig'ib-terib olishlarida yaqindan yordam berishadi. Qizlar esa uy



yumushlarini, ya'ni tozalash, ovqat pishirish, xamir qorish, non yopish va hokazo mashg'ulotlarni jon-dilidan bajaradilar. Shahar oilalaridagi sharoit ulardan tubdan farq qiladi. Ozchilik bo'lsa-da shahar oilalarining bolalari maktabning turli jonli burchaklarida, tajriba ishlarida, daraxtlarni parvarish qilishda ishtirok etishadi. Lekin bu ishlarni ota-onalarining ishtirokisiz, har zamonda bajaradilar. Natijada bekorchilik kuchayadi ikki sport maydonchalaridan beri kelishmaydi, shahar bo'ylab sang'ib yurishadi.

Ziyoli va xizmatchilar oilasining qishloqda ikki shaharda yashashlariga qarab bolalariga beriladigan tarbiyatda ham birmuncha farqlar mavjud. Shaharlarda yashovchi ko'p bolali ziyoli ikki xizmatchi oilalaridan farqli o'laroq qishloqlardagi shu toifadagi oilalarda bolalar siyosiy, madaniy-oqartuv ishlaridan tashqari ota-onalari ham, bolalar ham xo'jalik dalalarida, bog' va polizda mehnat qiladilar. Qo'lidan ish keladigan barcha yoshlar ota-onalari yonida muntazam mehnat qilish bilan band bo'ladilar, jismoniy mehnatga nisbatan tayyor bo'lib voyaga yetadilar.⁵

Umuman olganda hamma oilalar tarbiyasi uchun yaroqli umumiy formula topish mumkin emas, lekin bolalar tarbiyasi bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar asosida oilaning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, kelajakda kutilish mumkin bo'lgan tarbiya natijalarini hisobga olib, bir necha omillar haqida maslahat berish mumkin. Masalan, bolalar tarbiyasida oilaviy muhit maxsus ta'sir kuchiga ega. Muhit deyilganda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bolalarga ta'sir ko'rsatish usullari, oilada mavjud bo'lgan boshqa shakl va uslublar yig'indisiga aytiladi. Oila muhitining mazmuni ota-onalarning, katta yoshdagi a'zolarining g'oyaviy-siyosiy ongliklarida namoyon bo'ladi.

Foydalangan Adabiyotlar

1. Адамбаев, У. Х. (2022). ИШОНЧ-ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АРГУМЕНТЛАШНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences, 3(1), 898-905.
2. Адамбаев, У. Х., & Джораев, Д. Ў. (2022). ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 125-134.



HOZIRGI DUNYODA HUQUQIY TA'LIMNING AHAMIYATI

Abdug'afforova Mohinur Abdusamat qizi

Termiz davlat universiteti, Yuridik fakulteti,

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va

huquq ta'limi yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

Telefon: +998936383823

E- mail: mohinurabdugafforova7@gmail.com

Annotatsiya: Huquqiy ta'limning yondashuvlari va uslublari ham o'sha davrda ta'limning o'zida yangi o'rganish bilan o'zgardi va yaqinda ta'limni tekshirish va monitoring qilishdagi byurokratiya an'anaviy uslub va yondashuvlarni yanada keskinlashtirdi. Ushbu maqolada huquqiy ta'limning yondashuvi, mazmuni, uslubi va paradigmalarini butunlay o'zgartirishga olib keladigan katta qiyinchiliklar ko'rib chiqilib, o'zgarishga majbur qiladigan asosiy masalalarga qisqacha e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: huquq, jinoyat, yuridik, ma'muriy huquq, shaxs, advokatlik, huquqiy tarbiya, BMT, Xavfsizlik Kengashi, huquqiy madaniyat, jamiyat, huquqshunos, huquqiy ko'nikmalar.

Huquqiy ta'lim va tadqiqot sohasidagi mukammallik juda muhim, chunki u qonun ustuvorligi sifatini shakllantirishga yordam beradi. Yuridik ta'lim bo'lajak advokatlarga taqdim etishi mumkin bo'lgan bebaho tajribalar bir nechta. Ular orasida birinchi navbatda ta'sir qilishdir. Huquqiy sub'ektlarning keng doirasiga - protsedura, shartnomalar, huquqbuzarliklar, jinoyat huquqi, dalillar, konstitutsiyaviy huquq, korporativ huquq, mulk huquqi, ma'muriy huquq, yurisdiksiya, mehnat huquqi, tijorat huquqi va boshqalar. Bular aqlli huquq amaliyoti uchun zarurdir. Shuningdek, u huquqshunos talabalarga klinikalar, stajirovkalar va sinov amaliyoti va muzokaralar kurslarida amaliy huquqiy ko'nikmalarni o'rganish uchun nazorat ostida, qat'iy va intizomli imkoniyatni taqdim etadi. Bu yosh huquqshunoslar uchun ko'pincha ularga dars berish uchun juda band bo'lgan huquqshunoslar uchun minnatdorchiliksiz topshiriqlarni bajarishdan ko'ra ko'nikmalarga ega bo'lishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Huquqiy ta'lim - bu adolatli jamiyatni yaratish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan asosiy falsafalar, mafkuralar, tanqidlar va vositalarni texnika, ko'nikma va malakalardan tashqari taklif qiladigan insoniy fanning bir shakli. Qadimgi Yunoniston va Rimda advokatlik (ma'naviy huquq) bo'yicha ma'lum bir rasmiy ta'lim yuridik tajribaga ega bo'lgan shaxslarning professional sinfini yaratishni qo'llab-quvvatlagan, ammo bu sinf bunday kasb emas edi va huquqiy ta'limning dastlabki shakllari asosan xizmatchilar tomonidan olingan kuzatish va o'qitish orqali amalga oshirilgan. rasmiy akademik ta'lim orqali emas, balki yuridik maslahatchi (yurisprudent) uchun shogird. Yuridik matnlar ko'p asrlar davomida juda kam uchraydi, bu esa ritorika san'ati muqarrar ravishda ilk yuridik ta'limning "o'zagi" ni tashkil qilganligini anglatadi. Biroq, asta-sekin qonun va urf-odatlariga oid matnlar keng tarqalib, sud qarorlari va yozuvlari saqlana boshlaganligi sababli, bu hukmronlik an'anasini to'la vaqtli huquqshunos o'qituvchilar tomonidan yaratilgan yangi yozma an'ana bilan almashtirildi. va huquq uchun. Bu adabiyotlar akademiyasi yoki professional tashkilotlarning maqsadlariga xizmat qilish uchun yozilganmi, hech qachon aniq bo'lmagan va bugungi kungacha huquqiy ta'limning yakuniy maqsadlari uning turli manfaatdor tomonlari tomonidan qattiq bahslashmoqda. Qadimgi dunyoda juda dastlabki huquqshunoslar, albatta, o'z qarashlarida paroxiya bo'lmagan va huquq va axloq o'rtasida keskin farqlar ajratmagan, boshqa kasb-hunar va fanlar bilan aloqasini ham hisobga olmagan. Huquqiy ta'lim va ta'lim o'rtasidagi farqni ko'rsatadigan bo'lsak, aytish mumkinki, vaqt o'tishi bilan ikkinchisi doimiy ravishda birinchisini siqib chiqardi, natijada yaqin vaqtgacha huquqiy tafakkur chegaralari torayib bordi va huquqiy ong ko'proq introvert bo'lib, texnik bilimlarga singib ketdi. asosiy qadriyatlardan ko'ra vaqtinchalik qoidalar. Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993 yil mart oyida e'lon qilingan "Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi"da qayd etilganidek: "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro



tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida o‘quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir. 1997 yil 29 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi” g‘oyalari jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirish borasida qimmatli nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlardagi yuqori huquqiy savodxonlik demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu qatorda, bugungi islohotlarning mohiyatini tushunishda, ularni amalga oshirishda yoshlarning yanada faol ishtirokini ta’minlaydi. Bu darajaga esa tizimli va doimiy huquqiy tarbiya orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDYI, 2011. 74-bet.
2. Amirov Z. “Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida” // Jamiyat va boshqaruv –2015. №3
3. <http://www.srdlawnotes.com/2016/03/legal-literary-and-objects-of-legal.html>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni, 13-, 21- moddalar // http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3329163



ДАВЛАТ БОШКАРУВИДА ХУКУКБУЗАРЛИКАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ АХАМИЯТИ

Абдишерипов Асадбек Алижан ўғли
Ўзбекистон Республикаси ИИВ
Академияси 3-курс курсанти

Аннотация: Ушбу мақолада давлат бошқаруви соҳасида ҳуқуқбузарлик профилактикасининг аҳамияти борасида фикр юритилган.

Калит сўзлар: жамият, ҳавф, ижтимоий, ҳуқуқбузарлик, профилактика.

Кишилиқ жамияти қарор топиши билан инсон ҳаёти ва соғлиғига қарши ижтимоий ҳавфли қилмишлар содир этилган дастлабки даврларданок уларнинг олдини олишга қаратилган одат нормалари қаторида илк таълимотлар ҳам вужудга келди. Давлатнинг ташкил топиши натижасида ушбу ижтимоий ҳавфли қилмишлар ҳуқуқ билан тартибга солиниб, жазо қўлланилиши таҳдиди билан ҳуқуқбузарлик сифатида баҳоланиши ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ҳақидаги таълимотларнинг ҳам муайян тизимда ривожланиб боришига хизмат қилди.

Давлат бошқарувидаги ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ҳақидаги таълимотлар – бу ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, уларни келтириб чиқарувчи сабаб ва шароитларни бартараф қилишга қаратилган ғоялар, фикрлар, қарашлар ва нуқтаи назарлар мажмуи ҳисобланади.

Марказий Осиё ҳудудида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ҳақидаги илк таълимотлар Зардўштилик динининг асосий манбаи – «Авесто»да, қадимги халқларнинг битикларида, халқ оғзаки ижодида акс этади ва ушбу таълимотларнинг ўзагини эзгулик ва ёвузлик, ёмонлик ва яхшилик, адолат ва адолатсизлик ўртасидаги курашни ўз ичига олувчи, инсонни эзгуликка чорловчи ғоя ва қарашларда намоён бўлади. Чунончи, эзгулик, яхшилик инсонни яхши амалларни бажаришга, жиноят содир этишдан тийилишга ундайди. Ёвузлик ва ёмонлик эса инсонни ҳуқуққа ҳилоф ишларни қилишга, қабихликка, ёвузларга хос хатти-ҳаракат, хунрезлик ва жохилликка, содда қилиб айтганда эса ҳуқуқбузарлик ва жиноят содир этишга даъват этади. Авесто, Овесто (парфиёнча *apastak* – матн; кўпинча «Зенд-Авесто», яъни «тафсири қилинган матн» деб аталади) – кўпчилик тадқиқотчилар фикрига кўра, Ўрта Осиёда, хусусан Хоразмда милoddан аввалги 1-минг йилликнинг 1-ярмида вужудга келган Зардўштиликнинг муқаддас китоблари тўплами. Авесто узоқ вақт мобайнида шаклланган бўлиб, унда келтирилган маълумотларнинг энг қадимги қисмлари милoddан аввалги 2-минг йиллик охири – 1-минг йиллик бошига оид бўлиб, оғзаки тарзда авлоддан-авлодга ўтиб келган.

Кейинги асрларда унинг таркибига турли диний урф-одатлар баёни, ахлоқий, ҳуқуқий қонун-қоидалар қўшилиб борган. Авестони Зардўшт диний асар сифатида бир тизимга солган. Дастлабки ёзма нусхаси эса 12 минг мол терисига битилган деб ривоят қилинади.

Авестода баён этилган ғояларга кўра, олам икки асоснинг, икки ибтидонинг, яъни ёруғлик билан зулматнинг, яхшилик билан ёмонликнинг тўхтовсиз курашидан иборат. Яхшилик ва эзгулик худоси Ахурамазда ер, ўсимлик ва бошқа ҳамма табиий бойликларни яратган. Ёмонлик ва ёвузлик тимсоли Анхрамайну Ахурамаздага қарши тўхтовсиз курашади, аммо уни енгишга ожизлик қилади. Бу кураш абадий давом этади. Яхшиликни ифодаловчи кучлар осмонда, ёмонликни ифодаловчи кучлар ер остида жойлашган, ер сатҳи эса кураш майдонидир. Ҳаётдаги турфа ўзгаришлар қайси кучнинг ғалаба қилишига боғлиқ. Инсон ҳам тана ва руҳнинг, ахлоқ эса яхши ва ёмон хулқнинг ўзаро курашидан иборат. Айниқса, Авестода жохиллик, зўравонлик, тўхмат каби ёмон ҳислатлар қораланади, соф кўнгилли бўлиш, хиёнат қилмаслик, савдода бир-бирини алдамаслик, ҳақорат қилмаслик каби ҳислатлар тарғиб этилади.

3000 йил муқаддам икки дарё оралиғида, мана шу заминда умргузаронлик қилган аجدодларимизнинг биз авлодларига қолдирган маънавий, тарихий мероси – Авесто ўзбек, умуман Ўрта Осиё халқларининг қадим даврдаги ижтимоий-иқтисодий ҳаёти, диний қарашлари, олам тўғрисидаги тасаввурлари, урф-одатлари, маънавий маданиятлари билан бирга жиноятларнинг олдини олиш ҳақидаги тасаввурларини ўрганишда муҳим ва ягона



манба.

Зардўштилик таълимоти ва унинг муқаддас китоби Авестода одамларни имонли-эътиқодли бўлишга, доимо покиза юришга, танани озода тутишга, ҳар қандай ёмон ният ва сўзлардан тийилишга, ёмон амаллардан воз кечишга, ножўя ишлардан юз ўгиришга даъват этадиган ахлокий қоидалар, ўғитлар нихоятда кўп. Жумладан, «Вандидот» («Девларга қарши қонун») нинг 13, 14-бобларида сувни тежаш, уни қадрлаш, ундан унумли фойдаланиш ҳақидаги қоидалар битилган. Унда шунингдек, сувни ифлослантиришни тақиқловчи қоидалар битилган. Бу қоидаларни бузганларга нисбатан мажбурий меҳнатга жалб қилиш жазоси белгиланган. Эр-хотиннинг бир-бирига хиёнат қилганлиги, никоҳсиз эр-хотинлик муносабатида бўлганлик учун тан жазоси белгиланган.

Шунингдек, «Авесто»да ҳарбий тўқнашувлар, хунрезликлар, босқинчилик ҳаракатлари кескин қораланиб, хайрли иш қилиш, ахлоқ-одобли, билимли, маърифатли бўлиш эса турли диний ақидаларга мутлақ амал қилишдан устун деб қаралган.

Олимлар томонидан Вандидот матнлари асосида жиноят (ҳуқуқбузарлик)ларнинг қуйидаги таснифи тузилган:

- 1) динга қарши жиноятлар: бидъат, бошқа диннинг вакили билан никоҳга кириш, руҳонийнинг вазифасини ғайриқонуний бажариш, атеизм;
- 2) шахсга қарши жиноятлар: қасддан ҳужум қилиш ёки жазава ҳолатида ҳужум қилиш, таҳдид қилиш, шифокорнинг зиён етказувчи ҳаракати, ҳомилани олиб ташлаш, регул ва ҳомиладорлик пайтида аёлнинг соғлиғига қарши жиноятлар;
- 3) ҳайвонларга қарши жиноятлар: айникса, кучукларга қарши жиноятлар;
- 4) мулкий жиноятлар: ўғрилик, талон-торож, босқинчилик, фирибгарлик. Хасислик мулкий жиноятнинг алоҳида тури ҳисобланган;
- 5) ахлоққа қарши жиноятлар: бесоқолбозлик, фоҳишалик билан шуғулланиш («Вандидот», XVII, 114–121), эр-хотин хиёнати.
- 6) табиат кучларига қарши жиноятлар: ерга, сувга, оловга ва ўсимлик дунёсига қарши жиноятлар.

Шунингдек, Авестода мазкур ижтимоий хавфли қилмишларни, яъни жиноятларни содир этган шахсларга нисбатан муайян жазо чорасини қўллаш масалалари ҳам тартибга солинган. Жумладан, Авестодан Зардўштилик таълимотида қуйидаги жазо тизими бўлганлигини кўриш мумкин:

- а) ўлим жазоси;
- б) қамоқ;
- в) тан жазоси;
- г) гуноҳини ювиш;
- д) хун олиш.

Зардўштилар ақидасига кўра тўрт тоифа кишилар сўзсиз, ҳеч қандай ҳукм ва ҳакамсиз қатл қилинганлар. Булар: мурда (ўлимтик, ўлакса)ни ёқувчи, йўлтўсар қароқчи, баччабоз ва энг қабиҳ гуноҳ устида қўлга олинган кимса.

Авестода Зардўштилар ақидаси бўйича ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда дарра уриш жазосидан кенг фойдаланилганлигини кўриш мумкин. Хусусан, Авестонинг Вандидот бўлими 4-фаргард (боб)ида кимда-ким бировни уриб, унга қаттиқ шикаст етказса, ушбу киши биринчи бор ўттиз марта (от думидан қилинган) қамчи билан, ўттиз марта хипчин (хивич) билан саваланиши, иккинчи бор эллик марта қамчи билан, эллик марта хипчин билан саваланиши, учинчи бор етмиш марта қамчи билан, етмиш марта хипчин билан саваланиши кўрсатилган. Шунингдек, Авестода бировни уриб, унинг қонини оқизган, суягини синдирган шахсларга нисбатан янада оғирроқ жазо, яъни кўпроқ дарра уриш жазоси берилиши кўрсатилган.

«Авесто»да такрорий жиноят (ҳуқуқбузарлик) содир этганлик қаттиқ танқидга олиниб, бу учун янада оғирроқ жазо тайинланиши белгиланган. Шунингдек, ушбу китобда илгари содир этилган жиноят учун тайинланган жазони ўтаб бўлмай туриб, такроран жиноят содир этиш ҳам жазони оғирлаштиришни назарда тутган. Бу эса ҳуқуқбузарликлар профилактикасида муайян аҳамият касб этган.

«Авесто»да жиноят субъектлари сифатида одам ҳам, ҳайвон ҳам эътироф этилган. Жиноят субъектлари тушунчаси асосида шахснинг диний мансублиги ётади. Одамлар жиноят субъекти сифатида диндор маздачилар ва бошқа фикрловчиларга бўлинади. Энг аввало маздачилар билан курашаётган барча бошқа мазҳаблар жиноят субъектлари бўлган.



Фойдаланилган адабиётлар

1. Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005.
2. Саиткулов К.А. Ички ишлар органлари профилактика хизматларининг фукаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлигини ташкил этиш: ўқув-амалий кўлланма / юридик фанлар доктори, проф. И. Исмаиловнинг таҳририда. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015.



ЖАМИЯТДА ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ОРҚАЛИ ХАЛҚ ОРАСИДА ХУҚУҚИЙ ОНГ ВА МАЪДАНИЯТНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ

Абдишерипов Асадбек Алижан ўғли
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
3-курс курсанти

Аннотация: Ушбу мақолада ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишнинг амалий жиҳатлари ва жамиятда ҳуқуқий онгни ривожлантириш масалалари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маданият, миллий қадриятлар, ёш авлод, ҳуқуқ ва эркинликлар.

Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни шакллантириш бўйича ҳуқуқий маърифий тадбирлар ва учрашувларни кенгайтириш, халқимиз тарихи, дини, миллий қадриятларини ёш авлод онгида шакллантириш орқали ватанпарварлик ҳиссини кучайтириш каби ишлар амалга оширилаётган вақтда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги 2019 йил 9 январдаги ПФ-5618-сонли Фармонининг қабул қилиниши бу ишларни янада жадаллаштиришда ҳуқуқий асослардан бирига айланди.

Мазкур Фармонда инсон ҳуқуқ ва эркинликларига ҳурмат муносабатини шакллантиришга, аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришга, жамиятда фуқароларнинг ҳуқуқий саводхонлиги даражасини оширишга тўсқинлик қилувчи бир қатор муаммо ва камчиликлар кўрсатиб ўтилган. Жумладан, ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда энг аввало, ҳуқуқий таълим ва тарбия борасидаги ишлар тизими ва узвий олиб борилмаётганлиги, узоқ йиллар давомида бу масала ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва айрим давлат органларининг иши сифатида қараб келиниб, бунда оила, маҳалла ва фуқаролик жамияти бошқа институтларининг иштироки етарлича таъминланмаганлигини, ёшларнинг ҳуқуқий тарбиясига салбий таъсир кўрсатувчи омилларга нисбатан ҳуқуқий иммунитетни шакллантириш, ҳар бир шахсда қонунларга ва одоб-ахлоқ қоидаларига ҳурмат, миллий қадриятларга садоқат, ҳуқуқбузарликларга нисбатан муросасизлик ҳиссини уйғотиш ишига комплекс тарзда ёндашилмаганлиги ҳамда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда шахсий манфаатлар ҳамда жамият манфаатлари ўртасидаги мувозанатни сақлаш ғояларини аҳоли онгига сингдириш ишларининг етарли олиб борилмаслиги ҳам қонун устуворлигини таъминлашга ўзининг жиддий салбий таъсирини кўрсатаётганлиги айтиб ўтилган.

Энг аввало ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият ўзи нима деган саволга келадиган бўлсак,

Ҳуқуқий онг – қисқача қилиб айтганда ҳуқуқ ва қонунчиликка оид одамларнинг тасаввурлари, уларнинг ҳис-туйғулари, амалий тажрибалар таъсирида пайдо бўлган ҳуқуққа нисбатан муносабатини ифодалайди.

Ҳуқуқий маданият эса – фуқароларнинг давлат ва ҳуқуқ ҳақидаги муҳим билимларни эгаллаб олиши, амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳақидаги тушунчаларини талқин қила олиши ҳамда улардан тўғри фойдалана олишидир. Бугунги кунда юртимизда барча жабҳаларда туб ўзгаришлар юз бераётган масъулиятли паллада ҳуқуқий тарбиянинг барча шакл ва усулларида самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этишини ёдимиздан чиқармаслигимиз лозим. Шу сабабли ҳуқуқий маданиятимиз даражасига танқидий баҳо бериб, муаммоларимиз сабабини чуқур ўрганишимиз керак. Бироқ фақатгина қонунларни ўргатиш ва жавобгарлик билан кўрkitиш орқали қонун устуворлигига ва тараққиётга эриша олмаймиз. Бундан ташқари, ҳозирги глобаллашув, илмий-техник тараққиёт даврида аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришнинг инновацион усулларида, тарғиботнинг илғор ва таъсирчан воситаларидан, хорижий давлатларнинг бу борадаги ижобий тажрибаларидан фойдаланишимиз керак.

Фармон асосида аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришга доир ишлар самарадорлигини янада такомиллаштириш, фуқароларнинг ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар билан уйғун равишда ҳуқуқий билимларини ошириб боришнинг замонавий усуллари жорий этиш, шунингдек, аҳолини, айниқса, ёшларни зарарли ахборотлардан ҳимоя қилиш бўйича мустаҳкам ҳуқуқий иммунитетни шакллантириш мақсадида Адлия органи жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш соҳасида асосий ишларни амалга ошириувчи давлат органи этиб белгиланди.

Аҳолининг маълум бир фоиз қисмини ҳуқуқий билимлари етарли эмаслиги, давлат органларининг қонунга хилоф қарорларидан норози бўлган ҳолатларда судга шикоят қилиш



хуқуқларидан қўпчилик вазиятларда фойдаланмаётганлиги, айрим давлат органларининг мансабдор шахслари томонидан фуқароларнинг хуқуқлари ва қонуний манфаатлари қамситилиши ҳолатларининг вужудга келишига сабаб бўлаётганлигини инобатга олиб, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Адлия вазирлиги билан биргаликда аниқ вазифалар юклатилди бу орқали еса энди тарбияланаётган ёш авлодни ватанга мухаббат ва ҳурмат руҳида тарбиялаш. Аҳолига мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар, қабул қилинаётган қонун ҳужжатлари ва давлат дастурларининг мазмун ва моҳиятини изчил етказиш тизимини шакллантириш орқали фуқаролар онгида «Жамиятда қонунга ҳурмат руҳини қарор топтириш — демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг гаровидир!» деган ҳаётий ғояни мустаҳкамлаш. Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни оширишга доир тадбирларни ташкил этишда ижтимоий шериклик принципларидан унумли фойдаланиш орқали асосида йўлга қўйиш оммавий ахборот воситаларининг ҳуқуқий ахборот билан таъминлашдаги ролини ошириш, ҳуқуқий тарғиботнинг инновацион усулларидан кенг фойдаланиб, веб-технологияларни қўллашни кенгайтириш. Юридик таълимни такомиллаштириш, шунингдек, юридик кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини ривожлантириш. Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришнинг илмий асосларини чуқур тадқиқ этиш каби масалалар ёритиб ўтилган.

Шунингдек, фармон билан “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш” концепцияси қабул қилиниб, унинг асосий вазифа ва мақсадлари, асосий йўналишлари кўрсатилган ва Концепцияни самарали амалга ошириш бўйича “Йўл харитаси” ишлаб чиқилган. “Йўл харитаси”га 88 та банд киритилган бўлиб, барча соҳаларда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришга қаратилган ҳамда жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш “**шахс-оила-маҳалла - таълим муассасаси - ташкилот-жамият**” принципи бўйича тизимли ва узвий ташкил этилиши назарда тутилган. Мактабгача таълим ташкилотлари, умумтаълим мактаблари ва Олий таълим муассасалари орасида «Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш» ва «Инсон ҳуқуқларини ўрганиш» махсус ўқув курсларини барча таълим турлари бўйича тизимли ўргатиш нуктаи назаридан қайта кўриб чиқиш ва ўргатилишини ташкил қилиш.

Махсус ўқув курслари якуни бўйича ўқувчи ва талабалар орасида синовлар ташкил қилиш. Болалар ва ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятини шакллантиришга қаратилган Конституцияни ва инсон ҳуқуқларини ўрганиш бўйича кўргазмали қўлланмаларни тайёрлаш ва чоп этиш.

Мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланувчиларга болалар ҳуқуқ ва мажбуриятларига доир машғулотларни жорий этиш. Бунда мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг ҳуқуқ асослари ва бола ҳуқуқлари бўйича бепул малакасини ошириш ҳамда машғулотларни ўтказиш учун турли инновацион лойиҳаларни яратиш чораларини кўриш.

Янги авлод ҳуқуқий дарсликлари ва ўқув қўлланмалари тизимини яратиш. Бунда умумтаълим мактаблари бошланғич синф ўқувчилари учун ҳуқуқий билимларни содда ва кўргазмали ўргатишга қаратилган ўқув қўлланмаларини, шунингдек, таълим муассасалари учун ҳуқуқ фанлари бўйича ўқув дарсликлари ва қўлланмаларини тайёрлаш чораларини кўриш.

Ёшларга ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг амалий механизмларини ўргатишга қаратилган «**Street law**» (**Кўча ҳуқуқи — оддий ҳуқуқ**) лойиҳасини кенг жорий қилиш бўйича қуйидаги ташкилий чора-тадбирларни амалга ошириш белгилаб берилди.

Фойдананилган адабиётлар

1. Зиёдуллаев М. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқариш: ўқув-методик қўлланма / масъул муҳаррир юрид. Фан. Доктори И. Исмаилов. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008.

2. Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005.



ЖАМИЯТ БОШҚАРУВИДАГИ ИШТИРОК ЭТУВЧИ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИ

Абдишерипов Асадбек Алижан ўғли
Ўзбекистон Республикаси ИИВ
Академияси 3-курс курсанти

Аннотация: Ушбу мақолада ҳуқуқбузарлик профилактикаси органлари тизимларининг жиноятчиликка қарши кураш ва унинг олдини олиш борасидаги вазифалари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: ҳуқуқий адабиёт, профилактика, ижтимоий, ҳуқуқбузарлик.

Республикадаги ҳуқуқий адабиётларда профилактика субъектлари доирасини белгилашда турлича ёндашувлар мавжуд. Баъзи олимлар профилактика субъектларини фақат фаолиятининг асосий йўналиши жиноятчиликка қарши кураш ва унинг олдини олишдан иборат бўлган субъектга профилактика субъекти сифатида тан олиниши мумкин, деб ҳисоблашса, айримлари ушбу доирани кенгайтириб, ҳар қандай жисмоний шахс профилактик фаолиятнинг субъекти бўлиши мумкин, деган хулосаларни илгари сурган.

Бироқ биз ҳар иккала ёндашувга ҳам тўлиқ қўшилмаймиз. Чунки ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ижтимоий салбий оқибатларни, уларни келтириб чиқарувчи ва содир этилишига имкон берувчи сабаб ва шароитларни бартараф этишга йўналтирилади. Ижтимоий салбий оқибат жамиятга зарар келтиради, жамиятни эса ушбу жамият аъзолари ташкил этади. Жамият аъзоларининг ҳеч бири ижтимоий салбий таъсирлардан зарар кўрмаслик бўйича қафолатламайди. Демак, жамиятни ижтимоий салбий таъсирлар ва уларнинг оқибатларидан асраш учун ҳар бир жамият аъзоси масъулдир. Бу унинг шу жамият аъзолиги бурчидир.

Қонунда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи органлар ва муассасалардан иборат икки гуруҳга ажратилган субъектлар тизими мавжуд. Мазкур тизимда қуйидаги камчиликларни кузатиш мумкин:

1) қонуннинг 6-бобида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи органлар ва муассасалар тизими аниқ шакллантирилган, бироқ иштирок этувчи субъектлар мавҳум қолган. Натижада, Вазирлар Маҳкамаси ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қайси гуруҳга мансублигига ойдинлик киритишда мунозарали ҳолат юзага келган;

2) қонунда айрим нормаларида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи субъектлари тариқасида фақат орган ва муассасалар келтирилган, аммо бошқа бир нормада фуқаролар ҳам субъект тариқасида эътироф этилган. Бу эса вақтинча ишсиз, нафақада бўлган ёки таълим муассасаларида ўқиётган фуқаролар профилактиканинг субъекти бўлмайди, деган ҳақли саволнинг туғилишига сабаб бўлади;

3) қонунда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини мувофиқлаштирувчи субъектлар ҳам эътироф этилган, бироқ ваколати ва фаолиятининг мазмунидан келиб чиқиб, ушбу субъектларни ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи субъектлар гуруҳига ҳам, иштирок этувчи субъектлар гуруҳига ҳам қўшиб бўлмайди.

Юқорида келтирилган муаммоларни бартараф этиш бўйича қуйидагилар тавсия этилади:

Қонунда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси субъектларининг таснифига ойдинлик киритиш талаб этилади. Аслида адабиётларда ҳам бу борада турлича ёндашувлар мавжуд бўлиб, ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг субъектлари турли асосларда бир неча гуруҳларга ажратиб келинган. Мисол учун, Қ.Р. Абдурасулова фаолиятининг асосий йўналиши жиноятчиликка қарши кураш ва унинг олдини олишдан иборат бўлган субъектга профилактика субъекти сифатида тан олиниши мумкин[□], деб ҳисоблаб, ушбу тушунчани тор доирада талқин этган.

Ўзбекистон Республикасидаги бир қатор юридик олимлар эса жиноятларнинг олдини олиш объектига нисбатан йўналтирилган чора-тадбирларни амалга оширувчилар жиноятларнинг олдини олиш субъектлари ҳисобланади, деб тушунадилар. Улар жиноятларнинг олдини олиш фаолияти субъектларини жиноятларни олдини олишдаги бажарилиши керак бўлган асосий вазифаларига, олдини олиш чора-тадбирларини амалга ошириш микёсига қараб, шунингдек тармоқларга мансублиги, касбий махсуслиги



асосида гуруҳларга ажратиш мумкин деб ҳисоблаб, қуйидаги уч гуруҳни тавсия этади: *биринчи гуруҳга*, жиноятларнинг олдини олиш фаолиятини ташкил қилиш, унга раҳбарлик қилиш ва барча субъектлар фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича чора-тадбирларни амалга оширувчи; *иккинчи гуруҳга*, ўзларининг асосий бўлган, ҳуқуқни муҳофаза қилиш функцияларини бажариш вақтида бевосита жиноятларнинг олдини олиш чора-тадбирларини амалга оширувчи; *учинчи гуруҳга*, бевосита якка тартибда жиноятларнинг олдини олиш билан дастлабки босқичда шуғулланувчи субъектлар киритилган. Бир қатор олимлар мазкур таснифдан фойдаланган ҳолда «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонун нормаларига асосланган ҳолда қуйидаги таснифни илгари суради:

1) жиноятлар профилактикаси субъектларининг фаолияти устидан умумий раҳбарликни амалга оширувчи субъектлар

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари);

2) Жиноятлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи субъектлар

Ички ишлар органлари, прокуратура органлари, Миллий хавфсизлик хизмати органлари, адлия органлари, давлат божхона хизмати органлари, давлат солиқ хизмати органлари, меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш органлари, таълимни давлат томонидан бошқариш органлари ва таълим муассасалари, давлат соғлиқни сақлаш тизимини бошқариш органлари ва соғлиқни сақлаш муассасалари, Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органлари, Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги, Ўзбекистон Республикасининг дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари, вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссиялар, васийлик ва ҳомийлик органлари).

3) жиноятлар профилактикасида иштирок этувчи субъектлар фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари, вояга етмаганларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш марказлари, маданият ва спорт муассасалари, туризм соҳасидаги ташкилотлар, бошқа орган ва муассасалар, ота-она ота-она ўрнини босувчи шахслар, фуқаролар;

4) жиноятлар профилактикаси субъектларининг фаолиятини мувофиқлаштирувчи субъектлар одам савдосига қарши курашиш бўйича Республика Идоралараро комиссияси, одам савдосига қарши курашиш бўйича ҳудудий идоралараро комиссиялар, прокуратура органлари ҳузуридаги ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича мувофиқлаштирувчи кенгашлар.

Юқорида келтирилган бирор бир таснифга мутлақ қўшилиш қийин, чунки уларнинг айримлари тор доирада, айримлари эса бугунги кунда республикада ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар мазмунини тўлиқ камраб олмаган.

Ўрганилган илмий адабиётлар, қонун нормалари таҳлили, анкета сўровномалари натижаларига асосланиб, «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонунда Республика Президенти, Олий Мажлис, Миллий гвардия, оммавий ахборот воситалари ҳамда ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир идоралараро комиссияларни ҳуқуқбузарликлар профилактикаси субъектлари сифатида эътироф этилишини ўринли, деб ҳисоблаймиз. Бу борада, У. Абдуганиев ҳам Олий Мажлисни ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикаси субъекти сифатида эътироф этади.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси субъектларининг кўриб чиқилган таснифларини қисман эътироф этган ҳолда, қуйидаги мазмундаги янги таснифни тавсия этамиз:

1) ҳуқуқбузарликлар профилактикасида давлат сиёсатини белгилаб берувчи субъектлар

Ўзбекистон Республикаси Президенти, Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси.

2) ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи субъектлар

Ички ишлар, прокуратура, Миллий гвардия, давлат хавфсизлик хизмати, адлия, давлат божхона хизмати, давлат солиқ хизмати, меҳнат ҳамда Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органлари, таълимни давлат томонидан бошқариш органлари ва таълим муассасалари, давлат соғлиқни сақлаш тизимини бошқариш органлари ва соғлиқни сақлаш муассасалари.

3) ҳуқуқбузарликлар профилактикасида иштирок этувчи субъектлар



Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат ноtijорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари, вояга етмаганларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш марказлари, маданият ва спорт муассасалари, туризм соҳасидаги ташкилотлар, бошқа орган ва муассасалар, ота-оналар ва уларни ўрнини босувчи шахслар.

4) ҳуқуқбузарликлар профилактикасини мувофиқлаштирувчи субъектлар

ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш бўйича, вояга етмаганлар ишлари бўйича, одам савдосига қарши курашиш бўйича ҳамда коррупцияга қарши курашиш бўйича идоралараро комиссиялар, прокуратура органлари ҳузуридаги ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича мувофиқлаштирувчи кенгашлар.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдурасулова Қ.Р. Криминология: Дарслик. Масъул муҳаррир: юрид.фан.д-ри. проф. М.Х. Рустамбоев. – Т., 2008. – Б. 96, 305.
2. Қонунчилик ҳужжатлари.



ЖИСМОНИЙ ВА ЮРИДИК ШАХСЛАРНИНГ МУРОЖААТЛАР ТУШУНЧАСИ, ТУРЛАРИ ВА ШАКИЛЛАРИ

Эгамов Расулбек Рахмат ўғли
Ўзбекистон Республикаси ИИБ
Академияси3- курс курсанти

Аннотация: Ушбу мақолада жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизими ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: мурожаат, тартиб, фуқаролар, мансабдор шахслар, қонунийлик.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаат қилиш ва ушбу мурожаатларни кўриб чиқиш билан боғлиқ ҳуқуқий муносабатлари Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида»ги 2017 йил 11 сентябрда қабул қилинган қонуни билан тартибга солинади. Ушбу қонунинг 23-моддасига асосан эса, мурожаатларни кўриб чиқиш тартиби кўрсатилган бўлиб унга кўра “Давлат органига, ташкилотга ёки уларнинг мансабдор шахсларига келиб тушган мурожаатлар шу орган, ташкилот томонидан ёки мурожаатларни кўриб чиқиш бўйича зиммасига мажбуриятлар юклатилган мансабдор шахслар томонидан кўриб чиқилади” дейилган.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш қуйидаги, асосий қонунийлик;
муурожаатларни ўз вақтида ва тўлиқ кўриб чиқиш;
муурожаатларга нисбатан талабларнинг бир хиллиги;
жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига риоя этилиши;

муурожаатларни кўриб чиқишда бюрократизм ва сансалорликка йўл қўйилмаслиги;
муурожаатларни кўриб чиқишда давлат органлари, ташкилотлар ва улар мансабдор шахслари фаолиятининг шаффофлиги принспларидан иборатдир.

Давлат органлари ва давлат муассасаларга, шунингдек уларнинг мансабдор шахсларига жисмоний ва юридик шахсларнинг муурожаатлари соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

Мазкур қонунда Ўзбекистон Республикасининг жисмоний ва юридик шахслари билан бирга, хорижий давлатларнинг жисмоний ва юридик шахслари, фуқаролиги бўлмаган шахслари ҳам Ўзбекистон Республикаси давлат органларига муурожаат этиш ҳуқуқига эгалиги кўрсатиб ўтилган бўлиб улар ҳам Ўзбекистон Респуликаси фуқоролари билан бир қаторда ўз муурожаатларни қуйидаги турлари орқали йўллашлари мумкин бўлиб булар,

ариза – ҳуқуқларни, эркинликларни ва қонуний манфаатларни амалга оширишда ёрдам кўрсатиш тўғрисидаги илтимос баён этилган муурожаат;

таклиф – давлат ва жамият фаолиятини такомиллаштиришга доир тавсияларни ўз ичига олган муурожаат;

шикоят – бузилган ҳуқуқларни, эркинликларни тиклаш ва қонуний манфаатларни ҳимоя қилиш тўғрисидаги талаб баён этилган муурожаат булиб, муурожаатлар, уларнинг шакли ва туридан катъи назар, бир хил аҳамиятга ега булади.

Фуқоролар томонидан қилинадиган муурожаатлар ҳам ўз навбатида

Електрон муурожаат- белгиланган тартибда ахборот-коммуникатсия технолоиялари воситасида берилган, шу жумладан давлат органининг, ташкилотнинг расмий веб-сайтига жойлаштирилган муурожаат, реал вақт режимида ахборот-коммуникатсия технолоияларидан фойдаланган холда берилган оғзаки муурожаатлар бундан мустасно.

Аноним муурожаат – жисмоний шахснинг фамилияси, исми унинг яшаш жойи тўғрисидаги маълумотлар ёки юридик шахснинг тўлиқ номи, унинг жойлашган ери тўғрисидаги маълумотлар кўрсатилмаган ёхуд улар ҳақида ёлғон маълумотлар кўрсатилган муурожаат, шунингдек уни идентификация қилиш имконияти бермайдиган электрон муурожаат ёхуд имзо билан тасдиқланмаган ёзма муурожаат.

Такрорий муурожаат – айна бир жисмоний ва юридик шахсдан келиб тушган, унинг аввалги муурожаати юзасидан қабул қилинган қарор устидан шикоят қилинаётган ёки бошқача тарзда норозилик билдирилаётган, шунингдек, агар такрорий муурожаат келиб тушган пайтда келиб



конун ҳужжатларида белгиланган кўриб чиқиш муддати тугаган бўлса, илгариги мурожаати ўз вақтида кўриб чиқилмаганлиги тўғрисида хабар қилинаётган мурожаатлардир.

Мурожаатнинг дубликати бўлиб эса, айтиб бериш жисмоний ёки юридик шахснинг мурожаатини кўчирма нусхаси ҳисобланади.

оммавий қабул — давлат органи раҳбарининг ёки бу борада ваколат берилган мансабдор шахсининг жисмоний шахслар ва юридик шахсларнинг вакиллари билан оммавий учрашувларида мурожаатларни қабул қилишга доир ҳаракати;

видеоконференцалоқа — узокда жойлашган бир нечта абонентларнинг реал вақт режимида аудио- ва видеоахборот алмашиш имконияти билан ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда интерактив ҳамкорлик қилиши;

давлат иштирокидаги ташкилот — устав фондида давлат улуши мавжуд бўлган тижорат ташкилоти ёхуд тўлиқ ёки қисман давлат органи томонидан ташкил этилган ёки таъсис этилган нотижорат ташкилоти.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари қуйидаги шаклларда бўлади; оғзаки, ёзма ва электрон шаклларда.

Оғзаки шаклдаги мурожаатлар одатда, шахс томонидан юзма-юз ёки телефон орқали қилиниб, мурожаатнинг мазмуни ички ишлар идораларида юритиладиган махсус китобларда (масалан, ХТМда юритиладиган «Фуқароларнинг мурожаатларини қайд қилиш» китобида) ёки оғзаки мурожаат қилган фуқаролар тўғрисидаги маълумотлар (мурожаат қилинган сана, мурожаат қилган фуқаронинг фамилия, исми, шарифи, яшаш манзили, мурожаатнинг қисқача мазмуни ва кўрилган чора-тадбирлар) ушбу китобда қайд этиб борилади. Жисмоний шахс оғзаки мурожаат этаётганда ўз шахсини тасдиқловчи ҳужжатни, юридик шахснинг вакили эса ўз ваколатларини тасдиқлайдиган ҳужжатни, шунингдек ўз шахсини тасдиқловчи ҳужжатни кўрсатиши керак. Ёзма шаклдаги мурожаатлар эса аризаларда ўз ифодасини топади. Маълумки, қонунда бир-бирига ўхшаш бўлган «арз», «ариза», «оғзаки ариза баённомаси» каби терминлар ўз ифодасини топган. Ушбу ҳолатда «арз» тушунчаси фуқаро мурожаатининг мазмунини акс эттирса, «ариза» эса мазкур мурожаат қайд этилган процессуал ҳужжатни ифодалайди.

Ёзма мурожаат этувчи жисмоний шахснинг имзоси ёки мурожаат этувчи юридик шахс раҳбарининг ёхуд ваколатли шахсининг имзоси билан тасдиқланган бўлиши лозим. Жисмоний шахснинг ёзма мурожаатини мурожаат этувчининг имзоси билан тасдиқлаш имкони бўлмаган тақдирда, бу мурожаат уни ёзиб берган шахснинг имзоси билан тасдиқланиб, унинг фамилияси (исми, отасининг исми) ҳам қўшимча равишда ёзиб қўйилиши керак.

Амалиётда кўпчилик ҳолатда ёзма шаклдаги мурожаатлар ариза тарзида амалга оширилади. Бироқ ҳар доим ҳам мурожаат ариза шаклида бўлавермайди. Мисол учун, қонунда давлат органларига оммавий ахборот воситалари таҳририятларидан ҳам мурожаатлар келиб тушиши назарда тутилган бўлиб, ушбу мурожаатларни ҳам белгиланган тартибда ва муддатларда кўриб чиқиш талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 977-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.01.2018 й., 03/18/463/0634-сон; 11.03.2020 й., 03/20/608/0278-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

2. Зиёдуллаев М. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқариш: ўқув-методик қўлланма / масъул муҳаррир юрид. Фан. Доктори И. Исмаилов. — т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008.



ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ЖИНОЯТГА ОИД МУРОЖААТЛАРНИ КЎРИБ ЧИҚИШ ФАОЛИЯТИ

Эгамов Расулбек Рахмат ўғли
Ўзбекистон Республикаси ИИБ
Академияси 3-курс курсанти

Аннотация: Ушбу мақолада профилактика инспекторларининг жиноятларга оид фуқаролардан келиб тушган мурожаатлар билан ишлаш тизими ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Жиноят, шахслар, профилактика инспектори, мурожаат.

Жиноятга оид ариза, хабар, ҳодисалар тўғрисидаги маълумотлар ички ишлар идораларига келиб тушган ҳар бир ёзма маълумот бўйича шахар-туман ИИБ бошлиғи ёки унинг вазифаси юклатилган шахслар томонидан муайян аниқ бир ходим (жумладан, профилактика инспектори)га юклатилиб, мазкур йўриқнома ва жиноят-процессуал қонун ҳужжатларида кўрсатилган муддатларда ижро этилишини кўрсатган ҳолда ёзма топшириқ берилиши лозим.

Жиноят ҳақидаги ариза – фуқароларнинг жиноят ва жиноят-процессуал қонунлари билан белгиланган ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини рўёбга чиқаришда ёрдам кўрсатиш тўғрисидаги илтимоси баён этилган ёзма шаклдаги мурожаати (арзи)дир. Ушбу ҳолатда «арз» тушунчаси фуқаро мурожаатининг мазмунини акс эттирса, «ариза» эса мазкур мурожаат қайд этилган процессуал ҳужжатни ифодалайди.

Жиноятдан жабрланган фуқароларнинг арзи каби жиноят содир этган шахснинг айбини бўйнига олиш тўғрисидаги арзи ҳам оғзаки ёки ёзма равишда бўлиши мумкин. Бу ҳолатда ҳам ёзма арз аризада ифодаланса, оғзаки арз баённомада акс эттирилади.

Жиноят ҳақидаги хабар – бу процессуал ҳужжатларни расмийлаштирмасдан, балки корхоналар, муассасалар, ташкилотлар, жамоат бирлашмалари ва мансабдор шахслар ҳамда оммавий ахборот воситалари томонидан жиноят ва ҳодисалар ҳақида телефон ва телеграф орқали берилган, шунингдек сигнал берадиган кўриқлаш мосламаларининг ишлаб кетиши натижасида ва бошқа сигналлар орқали келиб тушган ҳамда аноним хабарлардир.

Жиноят ҳақидаги имзосиз, қалбаки имзоли ёки уйдирма шахс номидан ёзма равишда билдирилган арз гарчи шакл бўйича ариза тарикасида эътироф этилса-да, мазмун жиҳатдан имзосиз, қалбаки имзоли ёки уйдирма шахс номидан ёзилиб, аноним хусусиятга эга бўлганлиги боис ариза деб тан олинмайди.

Жиноят ҳақидаги бошқа маълумотлар – бу суриштирув органи, суриштирувчи, терговчи, прокурор ёки суднинг бевосита ўзи томонидан аниқланган жиноят содир этилганлигини кўрсатувчи излар ва маълумотлардир (ЖПК 322-м., 4-б.).

Жиноятга оид ариза, хабарлар ва бошқа маълумотлар моҳиятига кўра икки гуруҳга бўлинади:

- жиноят тўғрисида ички ишлар идоралари, жазони ижро этиш муассасаларига келиб тушган ва жиноят-процессуал қонун ҳужжатлари талабларига мувофиқ жиноят иши кўзғатилишига асос бўладиган ариза ва хабарлар;

- жиноят ва ҳодисалар тўғрисидаги бошқа хабарлар;

Жиноят иши кўзғатилишига асос бўладиган ариза ва хабарларга қуйидагилар қиради:

- қонун асосида баённома орқали ҳужжатлаштирилган ва аризачи томонидан имзоланган оғзаки аризалар;

- Ўзбекистон Республикаси жиноят-процессуал қонун ҳужжатлари талабларига мувофиқ тарзда ёзилган фуқароларнинг ариза ва хабарлари;

- фуқароларнинг бедарак йўқолганлиги бўйича ариза ва хабарлари;

- ахлоқ-одобваинтизом судлари, маҳаллапосбонлари ва бошқа жамоат ташкилотларининг ёзма хабарлари;

- корхоналар, ташкилотлар ва муассасалар, жамоат бирлашмалари ва мансабдор шахсларнинг ёзма хабарлари;

- жиноят-процессуал қонун ҳужжатлари талабларига мувофиқ тарзда ёзилган ва расмийлаштирилган фуқароларнинг чин қўнғилдан пушаймонлик бўйича аризалари;

- жиноят содир этилганлигини билдириб, айбини бўйнига олиш ҳақидаги арзлари;

- жиноят содир этилганлигини тўғридан-тўғри кўрсатмаса-да, бироқ жиноят аломатлари



мавжудлигини текшириб чиқишни талаб этадиган хабарлар.

аломатлари мавжудлигини текшириб чиқишни талаб этадиган хабарлар ҳисобланади.

Жиноят ҳақидаги бошқа хабарларга эса қўшимча текширув олиб борилишини талаб этадиган хабарлар киради.

Буларга – телефон, телефакс, телеграф, телерадио орқали тушган хабарлар, ХЧК ва ФР бўлимларига паспорт йўқолганлиги бўйича тушган шубҳали хабарлар, ЙҚХБ ходимларининг йўл-транспорт ҳодисаси ва унинг оқибатлари бўйича, қўриқлаш бўлимининг қўриқлов сигнализациясининг ишлаб кетиши ҳақида, ЁХБларининг ёнғинлар бўйича, рўйхат-имтиҳон бўлимининг фуқаролар томонидан шубҳали равишда техник паспорт ва ҳайдовчилик гувоҳномаларини йўқотганлик бўйича, матбуотда чоп этилган хат, мақола, хабарлар, давлат суғурта компанияларининг қонун бузилиши бўйича мурожаатлари, жиноятчиликка қарши курашга қаратилган барча хабарлар, эпизоотия, фавкулудда ҳолат, оммавий тартибсизликлар, бахтсиз ҳодисалар ҳамда ИИБ ходимларининг жиноят ҳақидаги билдиргилари киради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Зиёдуллаев М. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартибини сақлаш ва ҳавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқариш: ўқув-методик кўлланма / масъул муҳаррир юрид. Фан. Доктори И. Исмаилов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2008.

2.. Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2005.

3. Саиткулов К.А. Ички ишлар органлари профилактика хизматларининг фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлигини ташкил этиш: ўқув-амалий кўлланма / юридик фанлар доктори, проф. И. Исмаиловнинг таҳририда. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2015.



ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШ ФАОЛИЯТИДА ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ РОЛИ

Эгамов Расулбек Рахмат ўғли
Ўзбекистон Республикаси ИИБ
Академияси 3-курс курсанти

Аннотация: Ушбу мақолада жиноятчиликка қарши курашда профилактика инспекторларининг роли ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, профилактика инспектори, қонун, тинчлик, тотувлик.

Бугунги кунда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимини такомиллаштириш ва моддий-техник таъминотини янада яхшилаш, фаолиятининг самарадорлигини оширишга қаратилган чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Амалга оширилаётган ишларнинг мақсади жамиятда қонун устуворлигини таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишга қаратилган. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: “Жамиятда қонун устуворлигини таъминлаш — амалга оширилаётган барча ислохотлар самарадорлигига эришиш, аҳоли турмуш даражасини ошириш, мамлакатда тинчлик, тотувлик ва барқарор вазиятни таъминлашнинг асосий кафолатидир”, деб таъкидлаб қонун устуворлигини таъминлаш, мамлакатда тинчлик ва осойишталикни таъминлаш бугунги кундаги долзарб вазифалардан эканлигини кўрсатиб ўтди. Ушбу вазифаларни бажаришда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси муҳим аҳамият касб этиб, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, жамиятнинг тинчлиги ва осойишталигини таъминлашга хизмат қилади ва ўз навбатида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи субъектлардан катта масъулият талаб этади. Шунини алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг асосий субъектлари сифатида эътироф этиладиган ички ишлар органлари профилактика инспекторларининг ҳудудлардаги фаолиятини самарали ташкил этилиши ижобий натижаларга эришишнинг омили ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Биз «Адолат – қонун устуворлигида», деган тамойил асосида жамиятимизда қонунга ҳурмат ва ҳуқуқбузарлик ҳолатларига муросасизлик ҳиссини кучайтириб, олдини олишга қаратилган ишларимизни жадал давом эттирамиз лозим. Бу борада ҳуқуқбузарлик ҳолатларининг олдини олишга алоҳида эътибор қаратилиб, бунинг учун аввало, маҳалла имкониятларидан кенг фойдаланиш, профилактика инспекторларининг иш самараси ва масъулиятини ошириш, улар учун муносиб хизмат ва турмуш шароитини яратиб бериш чораларини кўришимиз, маҳаллаларда хизмат фаолиятини олиб боровчи профилактика инспекторларининг фаолияти ҳуқуқбузарликлар профилактикасида доимий равишда алоҳида ўринга эга қайдетиб келинади. Профилактика инспекторларининг фаолияти ўзларига бириктирилган хизмат кўрсатадиган маъмурий ҳудудларда жамоат тартибини сақлаш, хавфсизликни таъминлаш, давлат ва жамият ҳамда фуқароларнинг мол-мулкни турли тажовузлардан ҳимоя қилиш, ҳуқуқбузарликларнинг умумий, махсус, яқка тартибдаги ва виктимологик профилактикасини амалга оширишда бошқа давлат органлари ва кенг жамоатчилик билан ҳамкорликда ишларни ташкил этишдан иборат бўлиб, бугунги кун давр талаби билан жамиятнинг ривожланиб бориши бугунги кунда янги турдаги жиноятларни яралишига жамин бўлмоқда. Булар эса ўз навбатида, давлат ва жамият ҳаётига таҳдид солувчи янги турдаги жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликлар турлари пайдо тинчлик ва фаровонликка таҳдид бўлаётганлиги яни буларнинг турлари; одам савдоси, компьютерлар орқали содир этиладиган жиноятлар, диний экстремизм ва терроризм, наркотик воситаларнинг ноқонуний савдоси, ёшлар ва вояга етмаганларга «оммавий маданият» таъсирларининг ошиб бориши ва ундан ҳимоялаш механизмнинг ҳамда профилактиканинг замонавий усулларининг етарли даражада шаклланмаганлиги ва фарзандларга ота-оналари, кўни кўшнилари ёки яқинлари томонидан етарлича эътибор берилмаслиги сабабли ёшлар орасида интернет орқали ҳам кўплаб жиноятларни, ёки тақиқланган нарсаларга билган ва билмаган ҳолатда кириш ҳолатлари кўплаб кузатилмоқда. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гаровидир ва бундай сабаблардан ташқари турли кўринишдаги тузилмаларнинг пайдо бўлаётганлиги, хусусан хусусий корхоналар, фирмалар,



уюшмалар ва бошқалар, миграция жараёнларининг кундан кун ошиб бораётганлиги, фуқароларнинг чет элларга тижорат, ўқиш, ишлаш, дам олиш, даволаниш ва бошқа сабабларга кўра, чиқиши ҳамда ўз навбатида мамлакатимизда янги қўшма корхоналарнинг тузилаётганлиги, уларда ишлаш мақсадида мутахассис сифатида чет эл фуқароларининг келиши, шунингдек туризмнинг ривожланиб бораётганлиги, фуқароларда янги эҳтиёжлар пайдо бўлаётганлиги ёхуд уларнинг ошиб бориши, мазкур эҳтиёжларни қондириш, асосан моддий маблағнинг талаб этиши каби омиллар ҳам жиноятлар ва ҳуқуқбузарликларни ошишига сабаб болмоқда. Юқоридаги омилларни профилактикасини амалга ошириш мақсадида, профилактика инспекторлари фаолиятини янада такомиллаштириш, уларнинг фаолиятида янги замонавий инновацион технологияларни қўлланилишини таъминлаш, уларнинг касбий билим ва малакаларини ошириш, малакасини ошириш ҳуқуқбузарликлар профилактикасида муҳим аҳамият касб этади. Профилактика инспекторларининг фаолиятини самарали ташкил этишда қонун ва қонун ости ҳужжатлари ҳам муҳим роль ўйнайди. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 май қонуни ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги муносабатларни комплекс тартибга солиб, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи орган ва муассасаларнинг вазифаларини, ваколатларини, ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг турлари ва чора-тадбирларини, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи орган ва муассасаларнинг ҳамкорлигини таъминловчи механизм сифатида уларнинг фаолиятини мувофиқлаштирувчи прокуратура ҳузуридаги кенгашларнинг ташкил этилишини белгилаб берди. Ушбу қонундан келиб чиқиб, профилактика инспекторлари ҳуқуқбузарликларнинг умумий, махсус, яқка тартибдаги ва виктимологик профилактикасининг белгилаб берилган чора-тадбирларни амалга оширади. Ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикасида тарғиботташвиқот, махсус профилактикасида алоҳида тадбирларни ташкил этиш, яқка тартибдаги профилактикасида ҳуқуқбузарликка мойил шахслар, виктимологик профилактикада ҳуқуқбузарликдан жабрланган ва жабрланиш эҳтимоли бўлган шахслар билан чора-тадбирларни амалга оширади. Профилактика инспекторларининг фаолиятини ташкил этишда унинг самарадорлигига салбий таъсир кўрсатувчи субъектив ва объектив муаммолар ҳамда камчиликларни бартараф этиш инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигини таъминлашнинг гарови ҳисобланади. Хулоса қиладиган бўлсак, профилактика инспекторларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича фаолиятини ташкил этиш ва унинг самарадорлигини оширишда тизимли камчиликларни бартараф этиш, профилактика инспекторларининг касбий малака ва кўникмаларини такомиллаштириш, хизмат олиб боришида ички ишлар органларининг бошқа соҳавий хизмат ходимлари, давлат органлари ва жамоат тузилмалари билан ҳамкорлигини яхшилаш фаолияти самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдурасулова К. Р. Аёллар жиноятчилиги вауларнинг олдини олиш муаммолари. Ўқув кўланма / масъул муҳаррир: ю.ф.д.,проф. М.Ҳ.Рустамбоев. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009.
2. Хўжақулов С.Б. “Ҳуқуқбузарликлар умумий профилактикасини такомиллаштириш (ички ишлар органлари мисолида)”// док. дисс. афтреф// Т.: 2018.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000